جدید


Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 25-oktyabr
№ 44(44)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

OLIS VA YAQIN XOTIRALAR



“...Oybek domla “Navoiy” romani bilan Alisher Navoiy siymosini qanday porlatgan bo‘lsa, Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” romani bilan buyuk Bobur siymosini shunday porlatdi. Hukmron saltanat uchun bunday ulug‘ siymolarning ziyosi qaysidir xandaqlarda ko‘milib ketishi muhim edi. Lekin bu ta’qib-u tazyiqlar qanchalik xatarli bo‘lmasin, roman xalq qalbidan joy olib bo‘lgandi...”

(5-sahifada o‘qing).

FORUM



XALQARO MADANIY MEROS HAFTALIGI

O‘tgan haftaning 18-oktyabr kuni poytaxtimizdagi O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati (WOSCU) konferensiya zalida o‘z ishini boshlagan Madaniy meros forumi qizg‘in davom etmoqda. “Sharq renessansi fenomeni: davlatlar, dinlar va sivilizatsiyalar” mavzusida bo‘lib o‘tayotgan mazkur xalqaro anjumanda 100 dan ortiq xorijiy olimlar va mutaxassislar, jumladan, xalqaro madaniy tashkilotlar rahbarlari, chet el muzeylari va kutubxonalarining boshqaruvchilari qatnashmoqda.

Xalqaro tadbirning ochilish marosimida Yangi O‘zbekistonda davlat tomonidan fan, madaniyat, ta’lim sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida hikoya qiluvchi hujjatli film namoyish etildi. Filmda davlatimiz rahbari tomonidan madaniy merosni o‘rganish va saqlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, ta’lim dasturlarini joriy etish, WOSCU kongresslarini o‘tkazish kabi tashabbuslar yoritilgan. Quvonarlisi shundaki, bu kabi tashabbuslar O‘zbekiston madaniyati va san’atini, tarixini nafaqat xorijliklarga namoyish qilishga, ayni paytda chet ellik hamkorlar bilan tajriba almashishga, o‘zaro muloqotlarni jonlantirish, do‘stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

– O‘tayotgan haftalik Islom sivilizatsiyasi markazi uchun muhim ahamiyatga ega, – dedi ushbu markaz direktori, Madaniy meros haftaligining muvofiqlashtiruvchisi Firdavs Abduxoliqov. – Chunki tadbir doirasida Markazimiz oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar ijrosi amalda namoyish etilib, navbatdagi vazifalar ko‘lami ayon bo‘ladi. Ayni paytda ushbu xalqaro anjuman xorijlik hamkorlar bilan yangi qo‘shma loyihalarni ishga tushirish, yurtimizning madaniy merosini saqlash, asrab-avaylash hamda uni o‘rganish va ommalashtirish borasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Haftalik davomida bo‘lib o‘tayotgan tadbirlar anjumanning mazmun-mohiyati, uning xalqaro miqyosdagi ahamiyati va ko‘lamini yaqqol ko‘rsatib turdi. “Sharq Renessansi fenomeni: saltanatlar, dinlar va tamaddunlar”, “Islom dini – insonparvarlik, ezgulik, tinchlik va ma’rifatparvarlikka eltuvchi din”, “Asrlar xazinalari: O‘zbekiston qo‘lyozmalar merosi”, “Birinchi Renessans kashfiyotlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga ta’siri”, “Temuriylar davriga sayohat”, “Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy innovatsion muzeyiga global tendensiyalar hamda yangi formatlarni taqdim etish”, “Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar” kabi turli mavzudagi xalqaro forumlar, simpoziumlar yurtimizda madaniy merosni o‘rganish va saqlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamining kengligi hamda mazmundorligidan dalolat beradi.

Anjuman doirasida tashkil etilgan arxeologiya va etnografiya durdonalariga, O‘zbekistondagi qo‘lyozmalar merosiga, tinchlik, ezgulik va ma’naviy uyg‘onish yog‘dusi bo‘lmish Qur’onga bag‘ishlangan hamda Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi yangi ko‘rgazmalar, Kino san’ati tarixi muzeyidagi qiziqarli loyiha taqdimotlari barcha qatnashchilarda yorqin taassurot qoldirdi.

(Davomi 2-sahifada).

TADQIQOT

JADIDLARNING DAVLAT VA HUQUQ HAQIDAGI QARASHLARI

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “O‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidlik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda”.



Akmal SAIDOV,
akademik

Bugungi kunda taraqqiyparvar ajdodlarimizning, jumladan jadidlarning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish, ularning milliy davlatchilik va huquq rivoji to‘g‘risidagi nazariy qarashlari bilan birga amaliy tajribalarini ham o‘rganish juda dolzarb ahamiyatga ega. Jadidlar qonun ustuvorligini ta’minlash asosida demokratik jamiyat qurishga intilganlar. Biz bugun Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda, albatta, jadid allomalarimiz qoldirgan boy huquqiy merosdan kengroq foydalanishimiz kerak.

Jadid bobolarimiz zulm va jaholat bulutlari qoplagan Ona Vatanimiz osmonini ma’rifat ziyosi bilan munavvar etishga, mustabid zanjirlarini parchalab, ozod va obod, inson huquqlari himoyalangan, ta’bir joiz bo‘lsa, demokratik huquqiy davlat barpo etishga jiddu jahd qilishgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ular mustamlakachilarga qarshi mardonavor kurashib, xalq manfaatlari uchun aziz jonlarini fido etishgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning: “Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz!” degan so‘zlarida o‘z ifodasini topgan jadidlarga xos shijoat va vatanparvarlik inson qadri ulug‘langan, adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Jadidlarning g‘oya va maqsadlari, hayoti va ijodi, ma’rifiy va siyosiy faoliyatini o‘rganish borasida adabiyotshunos, tarixshunoslar, faylasuflar hamda yurist olimlar qator tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Huquqshunos olimlar qatorida bugungi kunda jadidlarning davlat va huquq to‘g‘risidagi qarashlarini o‘rganayotgan olima – yuridik fanlar nomzodi, dotsent Mavluda Ergashevaning faoliyatini ham alohida e’tirof etish mumkin.

Olima qariyb yigirma besh yildan beri jadidlarning siyosiy-huquqiy qarashlari, maqsad va maslaklarini tadqiq etib kelayotir. Uning “Abdurauf Fitrat – buyuk huquqshunos” risolasi, “Abdurauf Fitratning siyosiy va huquqiy ta’limoti”, “Huquqshunoslik, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish” (hammualliflikda) o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi chop etilgan.

(Davomi 6-sahifada).

KUN MAVZUSI

SAYLOVNING ARALASH TIZIMI

Mamlakat taraqqiyotiga ta’sir etuvchi muhim siyosiy jarayon – joriy yil 27-oktyabr kuni bo‘lib o‘tadigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari sayloviga ham sanoqli kunlar qoldi. Yangicha tartibda o‘tishi kutilayotgan saylov kunida asosli sabablarga ko‘ra o‘z yashash hududida bo‘lmaydigan yurtdoshlarimiz uchun tashkil etilgan muddatidan oldin ovoz berish imkoniyatlar yaratildi. Hududlardagi saylov uchastkalarida jarayon qizg‘in davom etayotganining o‘zi ham o‘zbekistonliklar o‘zining va Vatanimizning ertangi taqdiriga befarq emasligidan, qolaversa, ularning har biri fuqarolik haq-huquqlari hamda burchiga mas’uliyat bilan yondashayotganidan dalolatdir. Ta’kidlash kerakki, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli, dadil va izchil islohotlarning ustuvor vazifalari va asosiy yo‘nalishlaridan biri ham inson huquqlarini har tomonlama ta’minlashdan iborat.



Islohotlar jarayonida mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan eng ilg‘or demokratik tamoyillarni hayotga tatbiq etish, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini, saylov huquqini yanada kengroq ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda saylov qonunchiligining muttasil takomillashtirib borilishi, erkin demokratik davlatga xos juda muhim, mantiqiy, adolatli va zaruriy jarayon hisoblanadi. Mamlakatimizda erkin va adolatli saylovlar va referendumlarning qonunchilik asoslarini mustahkamlash, takomillashtirish va rivojlantirish borasida boy tajriba to‘plangan.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, 2023-yil 18-dekabr kuni kuchga kirgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun ham jamoatchilikning fikri keng e’tiborga olinib qabul qilingan hujjatlardan biridir.

(Davomi 2-sahifada).

MUJDA

Parijda YUNESKO Ijroiya kengashining 220-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda a’zo mamlakatlar bir ovozdan “Sun’iy intellekt odob-axloqi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uchun Beruniy nomidagi YUNESKO–O‘zbekiston mukofoti”ni ta’sis etish tashabbusini qo‘llab-quvvatladi.



Beruniy nomidagi YUNESKO–O‘zbekiston mukofoti ta’sis etildi

Mazkur tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan sun’iy intellektni rivojlantirishda axloqiy jihatlarni targ‘ib etish va bu boradagi ilmiy hamkorlikni rag‘batlantirish maqsadida ilgari surilgan.

Beruniy mukofoti inklyuzivlik va madaniy xilma-xillikka alohida e’tibor bergan holda sun’iy intellekt odob-axloqi sohasidagi izlanishlarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Bu O‘zbekiston bilan YUNESKO o‘rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni mustahkamlash, buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosini xalqaro miqyosda ommalashtirishda muhim qadam bo‘ladi.

Bu sun’iy intellekt odob-axloqi sohasidagi yutuqlar uchun beriladigan BMT tizimidagi ilk xalqaro mukofot sanaladi. U har ikki yilda bir marotaba uch nafar g‘olibga topshiriladi. Taqdirlash sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yuksaltiruvchi va axloqiy tamoyillarning amalda qo‘llanilishini namoyish etuvchi loyiha va tashabbuslar uchun amalga oshiriladi. G‘oliblarga pul mukofoti, sertifikat va medal topshiriladi.

Mukofotning ilk taqdimoti 2025-yil noyabr oyida Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

G‘oliblar sun’iy intellekt sohasidagi yetakchi mutaxassislardan iborat mustaqil xalqaro hakamlar hay’ati tomonidan aniqlanadi.

Ushbu mukofot sun’iy intellektni ishlab chiqishda nafaqat axloqiy yondashuvlarning muhimligiga urg‘u beradi, balki jahonshumul chaqiriqlarga yechim topishga yo‘naltirilgan xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha yanada keng qamrovli sa’y-harakatlarning bir qismi hisoblanadi.

O‘zA

SAN’AT — DO‘STLIK ELCHISI

“IKKI DIYOR FARZANDIMAN”

O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti To‘lqin TOJIBOYEV bilan suhbat

– Joriy yil hayotingizda quvonchli voqealar yuz berganidan xabarimiz bor. Ularning eng quvonarlisi, “O‘zbekiston xalq artisti” degan sharafli unvonga erishganingizdir. Tojikistonda yashab ijod qilayotgan o‘zbek san’atkorining O‘zbekiston Prezidenti, O‘zbekiston xalqi tomonidan e’tirof etilishini qanday kutib oldingiz?



– Men O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev janobi oliylarining shaxsan o‘z qo‘llari bilan unvonni topshirgan damni bir umr unutmayman. Ikki Prezident – Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmonning o‘rtasida suratga tushib, bu san’atsevar insonlarning tabrigini eshitar ekanman, o‘zimda yo‘q xursand edim, go‘yo oyoqlarim yerda-yu, osmonda uchardim. Faqat bir men emas, “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvoniga ega bo‘lgan boshqa tojikistonlik san’atkorlar va “Tojikiston xalq artisti” hamda “Tojikiston xalq hofizi” faxriy unvonlariga sazovor bo‘lgan o‘zbekistonlik san’atkorlar ham shunday hayajonli holatga tushishdi, deb o‘ylayman.

Men bu e’tiborni O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlikning amaliy natijasi, deya hisoblayman.

(Davomi 3-sahifada).



SAYLOVNING ARALASH TIZIMI

Boshlanishi 1-sahifada.



Gulnoza JO‘RAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori

Unda Qonunchilik palatasiga saylovda aralash, ya’ni majoritar va proporsional tizimni joriy qilishga doir yangi tartiblar belgilandi.

Aralash saylovning afzalligi – o‘zida amaldagi majoritar va proporsional saylov tizimlarining eng ilg‘or tamoyillarini uyg‘unlashtirib, bir-birini o‘zaro to‘ldirganidadir.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Aralash, ya’ni majoritar va proporsional tizim o‘zi nima? Bu saylovchilar, saylanuvchilar va saylov tashkilotchilari uchun qanchalik muhim?

Bilamizki, parlamentimiz quyi palatasi besh yil muddatga saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat. Bu yil mamlakatimiz tarixida birinchi marta deputatlarning yetmish besh nafari bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha saylovchilarning bevosita nomzodlarga bergan ovozlariga muvofiq saylanadi. Qolgan, yetmish besh nafari esa yagona saylov okrugi bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati (ya’ni partiya ro‘yxati) asosida saylanadi.

Endi saylovchi Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovda ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida aniq bir nomzodga ovoz bersa, boshqasida o‘zi ishongan siyosiy partiyani tanlaydi.

Ilgari deputatlikka nomzodlar miqdorining kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi kerak degan gender kvotasi ko‘rsatkichi endilikda 40 foiz etib belgilandi. Siyosiy partiya ro‘yxatidagi ketma-ketlikda ham har besh nomzodning ikki nafari ayol kishi bo‘lishi lozim.

Majoritar tizimda nomzodlar saylovchilarning yarmidan ko‘pining ovozini ololmasligi kabi holatlar ham ro‘y berishi mumkin edi. Bu esa takroriy ovoz berishni o‘tkazish, qo‘shimcha ovoragarchilik va xarajatni talab etardi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda o‘tkazilgan parlament saylovlarida yigirma beshta saylov okrugida takroriy ovoz berish o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, bo‘shab qolgan deputatlar o‘rnini to‘ldirish uchun saylov komissiyalari faoliyatini qaytadan tiklash zarur. Bu esa minglab odamlarni yana saylov komissiyalari ishiga jalb etish, saylovchilarni yana ovoz berishga da’vat qilish bilan bog‘liqdir. Proporsional saylov tizimining afzalligi – bunday holatlarda partiya tomonidan ko‘rsatilgan ro‘yxat bo‘yicha navbatdagi nomzod deputatlik o‘rnini egallaydi. Partiyalar tomonidan shakllantirilgan ro‘yxatlar jamoatchilik e’tiboriga havola qilinadi.

Bu mamlakatimizning milliy saylov tizimi tarixidagi g‘oyat muhim yangilik. Aralash tizimning afzalligini amaldagi saylov tartibining eng ilg‘or tamoyillarini uyg‘unlashtirganida ko‘rish mumkin. Amaliyotga joriy etilayotgan proporsional saylov tizimida yuqorida ta’kidlaganimizdek, saylovchi deputatlikka nomzodga emas, balki siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Qonunchilik palatasidagi ellik foiz deputatlik o‘rinlari siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlar ro‘yxatlari o‘rtasida taqsimlanadi.

Joriy yildagi saylovlar yangilangan Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlarining vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o‘tadi.

Yana bir muhim jihat. Hokimlarning xalq deputatlari kengashlariga rahbarlik qilishi bekor qilindi. Davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda vakillik organlarining rolini oshirish maqsadida avval hokimlar vakolatida bo‘lgan o‘ttiz uchta vakolat mahalliy kengashlarga o‘tkazildi. Bu esa siyosiy partiyalar va nomzodlar o‘rtasida faol raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, saylovning aralash tizimi avvalo, saylovchilar uchun, qolaversa saylanuvchilar va saylov tashkilotchilari uchun ham yangi, yanada keng qulaylik va imkoniyatlar yaratadi.



XALQARO MADANIY MEROS HAFTALIGI

Boshlanishi 1-sahifada.

Islom tarixi, san’ati va madaniyati tadqiqot markazi (IRCICA) bosh direktori o‘rinbosari Jengiz Tomar, Namik Kemal universiteti tarix kafedrasi professori Xalit Eren (Turkiya), Wilmotte & Associates yetakchi dizayneri va loyihalar rahbari Emmanuel Brello (Fransiya), Berlin davlat kutubxonasi Markaziy Osiyo bo‘yicha yetakchi mutaxassisi Aysima Mirsulton (Germaniya), Istanbuldagi Islom sivilizatsiyasi sayilgohi rahbari, Qur’onning Istanbuldagi noyob ko‘chirma nusxalari muallifi Husayn Qutlu (Turkiya), Mixo muzeyi maxsus ilmiy xodimi, fan doktori Sergey Laptev (Yaponiya) va boshqa xalqaro ekspertlarning maxsus chiqishlarida Sharq renessanslarining dunyo miqyosidagi ahamiyati alohida ta’kidlandi.

Ayniqsa, “Islom – tinchlik va ezgulik dini” simpoziumi davomida Turk qo‘lyozmalari boshqarmasi prezidenti Jo‘shqun Yilmazning 1318-yili Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon tomonidan ko‘chirilgan Qur’oni Karimning nodir qo‘lyozmasi mazkur boshqarmaga qarashli Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgani va ayni paytda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi bilan hamkorlikda uning faksimile nusxasini chop etish niyatida ekanliklari haqidagi xushxabari ishtirokchilarni juda quvontirdi. Shuningdek, Istanbul universiteti professori, doktor Emek Umenmezning Amir Temur avlodidan bo‘lgan Malika Shodmalik Xotun qo‘li bilan yozilgan Qur’oni Karim haqidagi ma’ruzasi ma’lum ma’noda haftalikning kashfiyotlaridan biri bo‘ldi. Ma’ruzada aytilishicha, bu qo‘lyozma hijriy 871, milodiy 1467-yili ko‘chirilgan bo‘lib, Istanbuldagi Turk va islom asarlari muzeyida saqlanadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Tirik tarix” loyihasi taqdimotiga bag‘ishlangan tadbirlar, kutubxona innovatsiyasi an’analariga oid xalqaro anjuman ham tadbir qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi.

Bugun, forum ishining so‘nggi kunida qatnashchilar O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyuradi hamda “Sharq miniatyuralarida tarixiy shaxslar” deb nomlangan loyiha taqdimotida ishtirok etadi. “Uchinchi Renessans: Yangi O‘zbekistonda madaniy-tarixiy merosni o‘rganish, saqlash va ommalashtirish fenomeni” deb nomlangan yakuniy yalpi majlis va madaniy meros haftaligining yopilish marosimi bo‘lib o‘tadi.



Jengiz TOMAR,
Turkiya Islom tarixi, san’ati va madaniyati tadqiqot markazi bosh direktori, professor:

– Yetti-sakkiz yildirki, O‘zbekistonda juda katta o‘zgarishlar yuz beryapti. Buning uchun davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevga minnatdorligimizni bildiramiz. Zero, so‘nggi yillarda Turkiya va Islom olamida, ayniqsa, ilm-fan va madaniyat sohasida munosabatlarimiz doirasi kengaydi. Turk dunyosining eng rivojlangan davlatlaridan biri qadimdan Turkiston bo‘lgan. Turkiston deganda, ko‘z oldimizga, eng avvalo, O‘zbekiston keladi.

Bizning O‘zbekiston bilan o‘xshash tomonlarimiz ko‘p. Ma’lumki, bugun Turkiya dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri. O‘zbekiston ham mintaqa geografiyasida alohida mavqega ega. Bugun o‘zaro munosabatlar borasida shunday imkoniyatlar yuzaga keldiki, bundan faqat xursand bo‘lishimiz kerak. Ya’ni biz bir hafta O‘zbekistonda bo‘lsak, keyingi hafta o‘zbeklar Turkiyaga boradi. Hamkorligimiz shu tariqa yanada mustahkamlanib boraveradi.

Kezi kelganda, o‘zaro munosabatlarimizda jadidlar harakatining alohida o‘rni borligini aytish lozim. Zero, yurtlarimiz hayotida jadidlar harakati juda muhim o‘rinni egallaydi. Madaniy-ma’rifiy jabhadagi keng ko‘lamli hamkorliklarimiz ildizlari jadid bobolarimizga borib taqaladi.



Karim IFRAK,
Fransiya Milliy ilmiy-tadqiqotlar markazi ijrochi direktori, islomshunos olim:

– Qur’on qo‘lyozmalarini dunyoning boshqa kutubxona va muzeylaridan ham topish mumkin. Biroq aynan O‘zbekistondagisi alohida bir mavzu. Bu yerda tadqiqot olib borish davomida shunga amin bo‘ldikki, aynan yurtingizda saqlanayotgan Qur’on qo‘lyozmalari boshqa kutubxona va fondlarda topilmaydi, juda kamyob. Bunga Katta Langar Qur’oni va Islom Qur’on mus’haflarini misol qilib keltirish mumkin. O‘zbekiston fondlarida saqlanayotgan Qur’on qo‘lyozmalari bizni ilhomlantirib, yanada chuqur tadqiqot olib borishga undamoqda. Ilmiy izlanishlar davomida mazkur qo‘lyozmalar noyobligi bilan bizni o‘ziga tobora jalb etyapti.

Zero, musulmon dunyosi madaniy merosi tadqiqotchilar uchun ming yillar davomida o‘rganishga arzirli muhim manbalarga ega. Qadim Movarounnahrda to‘plangan ilmiy, ma’naviy meros, noyob asarlar haligacha butun dunyo ahlini hayratlantirib keladi.

Qo‘limizdagi telefon, har kuni ishlatayotgan zamonaviy texnologiyalarimiz, hatto sun’iy yo‘ldosh – hammasining ortida Muhammad Xorazmiy chekkan zahmatlar, kashfiyotlar turibdi. Shu ma’noda aytish mumkinki, insoniyat tarixida musulmon sivilizatsiyasidek favqulodda hodisa kuzatilmagan.

Umida TESHABOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori:

– O‘zbekistonning tarixi, madaniyati, san’ati, ma’naviyati, ilmi boy. Shu sabab ham dunyo hamjamiyatining yurtimizga qiziqishi katta. Madaniy meros haftaligini o‘tkazishdan asosiy maqsad mana shu madaniy merosimizning buyukligini, qadrini, jahonga keng targ‘ib qilish va eng avvalo, yoshlarimizga yetkazishdir.

Haftalik doirasida sakkizta ilmiy maydonda turli mavzuda tashkil etilgan tadbirlar davomida turfa ko‘rgazmalar, ilmiy anjumanlar, kitob taqdimotlari o‘tkazilyapti. Bu anjuman qatnashchilari va mehmonlari uchun muhim manba bo‘ladi, degan umiddaman. Shuningdek, xorijdan tashrif buyurgan taniqli olimlar va mutaxassislarning chiqishlari ham yurtdoshlarimiz uchun foydali bo‘layotir.



Forum dasturiga muvofiq “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessansning kutubxona innovatsiyasi an’analari asosida” deb nomlangan anjuman O‘zbekiston Milliy kutubxonasida o‘tkazildi. Tadbir yurtimizda so‘nggi yillarda axborot-kutubxona sohasida olib borilayotgan islohotlar mohiyatini ochib berishga bag‘ishlandi. Mazkur tadbir tufayli chet ellik hamkasblarimiz bilan tajriba almashish imkoniga ega bo‘ldik.

Gulchehra UMAROVA
Abdumannon MAMATOV olgan suratlar

IBRAT

QAQROQ CHO‘LDA

Samarqandning serg‘ayrat qizi Sabohat Azimovaning rizq-u nasibasini taqdir shamoli Mirzacho‘lga sochgan ekan. Turmush o‘rtog‘ining ishi bilan qaqragan cho‘lda, muattar gul bo‘lib tomir yoygan noziknihol kelinchak bugun nuroniy yoshda. Umrining sokin davriga kelgan bo‘lsa-da, hamon jo‘shqin, hamon harakatchan.

U hayotining 40 yilini shifokorlikka bag‘ishladi. Payariq markazida yashovchi otasining quroldosh do‘sti talaba qiz – Sabohatni Mirzacho‘ldagi sutni qayta ishlash zavodida ishlayotgan o‘g‘li Nuriddin Mardiyevga kelin qildi. Biroz o‘tib, ikki go‘dagi bilan Sabohat ham erining ortidan kelib, internaturani tuman tibbiyot birlashmasining ichki kasalliklar bo‘limida tugatadi. O‘sha kunlarini u shunday xotirlaydi:

– Ishim nihoyatda ko‘p. Murg‘ak bolalarim bilan juda qiynalardim. Ayniqsa, qizim injiq va yig‘loqi edi. Farrosh ayol qarashgan qizimga. O‘g‘limni esa Yusuf aka degan zavod qorovuli ko‘tarib yurardi. Bir narsani aytay, sharoitim qanday bo‘lishiga qaramay, o‘quvchilik davrimda ham, talabaligimda ham biror soat darsdan, faoliyatim davomida biror kun ishdan qolmaganman. Faqat ilmiy ishim chala qolib ketdi. Oilaviy tashvishlar va ishga o‘ralashib davom ettirolmadim.

Yosh oila Mirzacho‘lda astoydil ishladi. Nuriddin aka zavod direktori lavozimiga ko‘tarildi. 1987-yilda mamlakatga go‘yoki maxsus topshiriq bilan kelgan Gdlyan va Ivanovning “qora quyuni” Sabohat opaning shirin turmushiga ham chang soldi, umr yo‘ldoshi tergovga tortildi. So‘roq jarayonlarida sirdaryolik “raispolkomga pora berdim, deb aytasan”, degan qat’iy talab qo‘yildi. Uchinchi farzandiga homilador Sabohat o‘n kun Mirzacho‘l va G‘allaorol orasida sargardon bo‘ladi. Har qancha qiyin kechsa-da, eri vijdonida rost turib, bir begunohga uyushtirilayotgan fitnaga bosh qo‘shmaydi. O‘sha raispolkom ham, Nuriddin aka ham qamoqdan ozod bo‘ladi va shundan so‘ng oila tinch-xotirjam yashashadi, ishlashadi.

Yillar o‘tib, Sabohat opa Jizzax viloyat reabilitatsiya shifoxonasiga terapevt vrach bo‘lib ishga kirdi. Shu orada u ham maktab o‘quvchilari, ham tibbiyot kolleji talabalariga dars berdi, ham poliklinikada ishladi. 2009–2013-yillarda esa viloyat reabilitatsiya shifoxonasini boshqardi.

Afsuski, atrofdagilarning hammasi ham yutuqlaringni to‘g‘ri qabul qilavermas ekan. Sabohat opaning ishlaridan kir qidiradiganlar topila qoldi. Bosh shifokorlik o‘rni uchun zimdan kurash boshlandi. Opaning ustidan turli bo‘htonlar uyushtirilib, yuqori organlarga yumaloq xatlar bitildi. O‘z mehnatiga halol, sohasining bilimdoni, kuchli mutaxassisligi, buning ustiga hisob-kitob masalalarida ham o‘tkirligi uchun qayta-qayta o‘tkazilgan tekshiruvlar uning halol ishlab kelayotganini isbot etdi, xolos.



“IKKI DIYOR FARZANDIMAN”

Boshlanishi 1-sahifada.

Ikki xalq orasidagi abadiy do‘stlik yangi bosqichga chiqdi. Ikki qardosh, ikki qo‘shni respublika bu yil ittifoqdosh mamlakatga aylandi.

Unvon berilgan kunda, bundan sakkiz-to‘qqiz yillar oldingi bevosita o‘zim boshimdan kechirgan kunlarni esladim. Mening amakilarim, ammam Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumanidagi O‘qchi qishlog‘ida yashashardi. Taqdir ekan, ikki amakim va ammam bandalikni bajo keltirishdi. Lekin men ham, Xo‘janddagi qarindoshlarimiz ham armonda qoldik, birontasining ta’ziyasida qatnasha olmadik. Chegaralar yopiq edi. Otam vafot etganlarida esa, o‘qchilik qarindoshlarimiz kelisholmadi. Qarindoshlarimizning quvonchli kunlarida – to‘y-hashamlarida ishtirok eta olmaganimizni unutsa bo‘lar, lekin og‘ir kunlarda ko‘ngil so‘ramaslikni unutib bo‘lmaydi.

Baxtimizga, Prezident Shavkat Mirziyoyev barcha qo‘shni davlatlar, jumladan, Tojikiston bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini tikladi. Ikki yil oldin, noyabr oyida ayam ko‘zlarimizni yoshlab ketdilar. Janozaga O‘qchidan, Farg‘onadan juda ko‘plab kishilar kelishdi. Hozir bordi-keldimiz sira uzilmayapti. Oltmishinchi yillarda “Mushtum” jurnalida tanqid qilib chiqilgan O‘qchi hozirda juda o‘zgarib ketgan. Ko‘p uylar shahardagidan ham ko‘rkamroq, qulayroq, zamonaviyroq. O‘qchilik qarindoshlarimiz bilan har oyda bir marta “yig‘in” tashkil qilganmiz. Navbati bilan goh Xo‘jandda, goh O‘qchida bo‘lib o‘tadi. Har gal ikki dono Prezidentning nomlari e’zoz bilan tilga olinadi, ularning qadim-qadimdan do‘st bo‘lib kelgan ikki xalq uchun qilgan g‘amxo‘rliklari, xalqchil siyosatlari haqida misollar keltirib, so‘zlashiladi.

– Bu do‘stlikka ko‘z tegmasin. Keling, endi bugungi kundan ancha orqaga qaytaylik. An’anaviy savol – nega siz san’at sohasini, aynan hofizlikni tanlagansiz?

– Endi bu oiladagi muhitdanmi yo Xudo tomonidan menga berilgan hadyami... Siz otimning ikkita – To‘lqin va Shokirjon ekanligini bilasiz. Lekin buning tarixini bilmasangiz kerak. O‘tgan asrning 60-yilida xo‘jandlik xolam Xosiyatxon Andijonga boradi. U yerda konsertga kirib, mashhur hofiz Shokirjon Ergashevning san’atiga maftun bo‘lib qoladi. “Singlim o‘g‘il ko‘rsa, ismini Shokirjon qo‘yamiz”, deb niyat qiladi. Oradan vaqt o‘tib men dunyoga kelaman, o‘n ikki kunlik bo‘lganimda xolam Xo‘janddan ko‘rgani keladi. “Shokirjonim” deb erkalaydilar. Lekin menga “To‘lqin” deb ot qo‘yishganini eshitadi. Ota-onam: “O‘qchida To‘lqin otli mashhur qo‘shiqchi bor, unga havas qilib o‘g‘limizga shunday ism tanladik”, deyishadi… Shunday qilib, har



ikki ismim ham san’atkorning ismidan. Yaxshi niyat – yarim davlat, degan gap bor. Balki buni taqdir, deyishar. Yuqorida oilamizdagi muhit, dedim. Buvim dutor chalib, qo‘shiq kuylagan. Ayam – Bashoratxon ham ashula aytgan. Ashulalari ijtimoiy tarmoqlarda hozir ham yangrab turadi.

– Siz maktabda o‘qib yurgan paytingizdan boshlab qo‘shiq aytgansiz. Lekin avvaliga mashhur hofiz Sherali Jo‘rayevning qo‘shiqlarini kuylagansiz. Hozirda o‘z yo‘lini topgan, o‘z ijro uslubiga ega, o‘zbek va tojik tilida birday mahorat bilan kuylayotgan san’atkorsiz. Bu yo‘lni topish ham mashaqqatli bo‘lgandir?

– Men san’atga yetmishinchi yillarning oxirlari, saksoninchi yillar boshida kirib kelganman. O‘shanda faqat men emas, juda ko‘p yosh hofizlar Sherali akaga taqlid qilardik. Lekin menga besh yil musiqa maktabida ta’lim bergan ustozim Inom Alimatov va yana bir ustozim, dutorni sayratib yuboradigan Murodjon pochcham ham “Hamma avvaliga kimgadir taqlid qiladi, lekin baribir o‘z yo‘lingni topishing kerak”, deyishardi. Yuqori sinfda o‘qiyotganimda Tojikiston xalq artisti Mastona Ergasheva Xo‘jandga kelganida meni yo‘qlatib, to‘yga olib borardi. To‘ylardan birida u kishi ko‘nglimni og‘ritmasdan nasihat qildi: “Shokirjon, yaxshi ovozingiz bor, Sherali Jo‘rayevning qo‘shiqlarini mahorat bilan ijro etasiz, lekin shu ketishda bir umr soya bo‘lib qolasiz. O‘z yo‘lingizni topganingiz yaxshi”. Oradan bir yil o‘tib, institutga o‘qishga kirganimda, radioda ovozim yozib olinadigan bo‘ldi. O‘shanda Tojikiston xalq artisti Jo‘rabek Nabiyev: “Afsuski, o‘zingizning mualliflik qo‘shiqlaringiz yo‘q ekan-da”, deb kelgusida she’rga, so‘zga juda talabchanlik bilan yondashish zarurligini aytgan edi.

Men hayot yo‘limda yaxshi ustozlar bilan uchrashish imkoniyatini bergani uchun Xudoga shukur qilaman. Masalan, Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan artist O‘rinbek Hamdamov Toshkentdagi konservatoriyaga yo Dushanbedagi san’at institutiga o‘qishga bormoqchi ekanligimni eshitib, bo‘ladigan san’atkor shu Xo‘jandda o‘qisa ham bo‘laveradi, degandi. O‘rinbek ustozning “Konservatoriyani, san’at institutini bitirib kelib, ikkita qo‘shiqni eplab aytolmaydiganlar qancha...”, deganlari ham esimdan chiqmaydi. Maqom san’atining donishmandlari, Tojikiston xalq artistlari Boymuhammad Niyozov, Barno Is’hoqovadan ham ko‘p narsa o‘rgandim. Hozir Jo‘rabek Nabiyev va Mastona Ergashevadan tashqari boshqa ustozlarim dunyodan o‘tib ketishgan. Alloh ularni rahmatiga olgan bo‘lsin! G‘oyibona ustozlarim ham ko‘p – Ma’murjon Uzoqov, Jo‘raxon Sultonov… Mendan oldin o‘tgan hofizlarning har birini o‘zimga ustoz deb bilaman.

– Siz Jo‘rabek Nabiyevning so‘zga jiddiy yondashish zarurligi haqidagi gaplarini esladingiz. U paytlarda men yosh edim. Jo‘rabek aka ham garchi taniqli ijrochi bo‘lsa-da, yosh edi. Bir uchrashuvda “Mustahzod”ni aytdi. Gapning ochig‘i, men bir so‘zni tushunmadim – “biloshak”. Jo‘rabek akadan bu so‘zning ma’nosini so‘radim. U kishi “Afsus, men ham bilmas ekanman”, dedi. Ertasi ertalab ishga kelsam, mendan oldin Jo‘rabek aka kelib o‘tiribdi. U paytlar internet qayda deysiz, “biloshak”ning ma’nosini qidirib topibdi. “Shakshubhasiz” degani ekan. Siz biron she’rni kuyga solayotganingizda tushunarsiz so‘z uchrab qolsa, nima qilasiz?

– Men Jo‘rabek akadan she’r tanlashni o‘rganganman. To‘g‘ri, she’rlar ko‘p, lekin hammasi ham ashula, qo‘shiq bo‘lavermaydi. Ko‘p she’rlar o‘zi musiqa bilan yaraladi. Avval musiqa yozib, unga she’r tanlash oson ish emas. Endi so‘zni xato aytish haqida. Buning sabablari bitta emas. Ayrim hofizlar ustoz san’atkorlarning ashulalarini qayta jonlantiryapti. Lekin ayrim ustozlarda so‘zni xato aytish holatlari bor. Hozirgi yoshlar “ustoz shunday aytgan-ku”, deya xato aytishda davom etyapti. Beparvo, ko‘r-ko‘rona yodlab olishadi. Axir bizdan oldin o‘tgan ayrim ustozlar boshqa kasb egalari bo‘lishgan. She’riyatdan yaxshi xabardor bo‘lmagandir, lekin tug‘ma ovozlari bo‘lgan. Demak, ustozlar shunday aytishgan-ku, deb ijro etmaslik, asl nusxani topib, qarab olish kerak.

Men yaqinda Chustiy she’ri bilan o‘z uslubimda bir ashula tayyorladim. Bu she’rni boshqa bir hofiz kuyga solgan edi. Ashulani qayta-qayta eshitdim. Qo‘shiqdagi bir so‘zni tushunmadim. Biron ma’no topmadim. Asl nusxani qidirdim. Topilmadi. Nihoyat, bir tanishimiz Chustga boradigan bo‘lib qoldi. Unga asl matnni surishtirishni iltimos qildim. Chustiyning nevaralari she’rning asl nusxasini topib beribdi. Xullas, men tushunmagan va hofiz buzib aytgan so‘z – “mumtoz” ekan.

Men yosh hofizlarga O‘zbekiston xalq artisti, rahmatli Mahmud Tojiboyevdan o‘rganishni tavsiya etaman. Uni “so‘z zargari” deb atagan bo‘lardim. U kishi har bir so‘zga juda katta mas’uliyat bilan yondashardi.

– Yaqindagina o‘zingiz shogird edingiz, endi ustozga aylandingiz. Tojikistondagi “Shashmaqom” ansambllaridan birini boshqaryapsiz. Ustozdan o‘rganish osonmi, shogirdlarga o‘rgatishmi?

– Avvalo, shogird tanlashga e’tibor berish zarur. Hammada ham bir oktavali ovoz bor. To‘g‘ri, hozir texnika rivojlanib ketgan, shu bir oktavali ovozi borlar ham ashula aytib yurishibdi. Kompyuterda ovozini chiroyli qilib yasab berishadi, ana keyin fonogramma qo‘yib olib, kimsan falonchi ashulachi bo‘lib yurishaveradi. Ayrimlar hamma tinglovchini notani tushunmaydi, deb bilib, falsh aytishadi. Shu notani olaymi, olmaymi, deb arosatda qolishadi. Men shogirdlarimga soz chalishni o‘rganish zarurligini aytaman. Soz chalishni bilsangiz, o‘zingiz pardani bosasiz. Notadan chiqib ketmaysiz, to‘g‘ri, hozir hofizga qarab turib, unga ergashadigan “ergashboy sozandalar” ham yo‘q emas. Ilgari bitta tor, doira va nari borsa, akkordeon qo‘shilib, ashula aytilaverardi. Endi cholg‘u ansambllari to‘liq bo‘lishi kerak. Ayniqsa, maqom ijro etilayotganda. Cholg‘u ansambli va hofizning uyg‘un bo‘lishi oson ish emas. Buning uchun mashq, mashq va mashq zarur.

Men shogirdlarimni – cholg‘uchilarini jonli chalishga, hofizlarni jonli kuylashga o‘rgataman. So‘z, musiqa va ovoz birligiga erishishga chaqiraman. Mehnatimiz zoye ketmayapti. Shogirdlarim mamlakat miqyosida mukofotlarni qo‘lga kirityapti. Mana yaqinda aka-uka G‘afforovlar Dushanbeda “Tojikiston – mening Vatanim” tanlovida bosh mukofot – Shohjoizani olib qaytishdi.

– Yangi asar yaratish haqida gapirdingiz. Sizni elga tanitgan Vatan haqida qo‘shig‘ingiz bor. Tojikistonda qaysi bir muhim tadbir – mamlakat yo viloyat miqyosida bo‘lmasin, uni, albatta, eshitamiz.

– To‘g‘ri, menimcha, o‘zini hurmat qiladigan har bir qo‘shiqchining Vatan haqida o‘z qo‘shig‘i bo‘lishi shart! Ba’zan hatto to‘ylarda bu qo‘shiqni qayta-qayta ayttirishadi.

Bir kuni tunda Moskvadan jiyanim qo‘ng‘iroq qilib qoldi. Xullas, u taksida ketayotgan ekan, haydovchi – rus kishisi o‘sha Vatan haqidagi qo‘shig‘imni qo‘yibdi. Jiyanim “Buning ijrochisi mening tog‘am”, debdi. Haydovchi ishonmabdi. Shunda jiyanim menga qo‘ng‘iroq qildi. O‘sha haydovchi men bilan gaplashib, ilgari Dushanbeda yashaganligini, bu qo‘shiqni har kuni eshitishini, eshitganida har gal badani jimirlab ketishini gapirib berdi. Voronejda bo‘lganimda esa, sobiq tojikistonliklar to‘planib kelishdi. Ruslar, tatarlar, boshqa millat kishilari. Men o‘sha Vatan haqidagi qo‘shig‘imni aytganimda, o‘tirganlarning ko‘zida yosh ko‘rdim. Ba’zilar baralla yig‘lashardi.

– Hayotingizda bo‘lgan bir voqeaning guvohiman. O‘shanda mashhur bastakor, sozanda Shavkat Mirzayev va hozirda O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston Qahramoni Munojot Yo‘lchiyeva Xo‘jandga kelishgan edi. O‘shanda, adashmasam, o‘n to‘qqiz yashar yigit edingiz. Xo‘jandda o‘qirdingiz, Shavkat Mirzayev ovozingizni eshitib ko‘rmoqchi bo‘ldimi, bitta mumtoz ashula, bitta zamonaviy qo‘shiq aytib berishingizni so‘radi. Kuzatdim, ijroingizni Munojot Yo‘lchiyeva ham berilib eshitib o‘tirdi. Qo‘shiq tugaganidan so‘ng Shavkat Mirzayev san’atga munosabatingiz, ustozlaringiz haqida savol berdi…

– Ha, ustozning savollariga javob berganimdan so‘ng, picha o‘ylandilarda, “Rozi bo‘lsangiz, Toshkentga olib ketsam, lekin u yerda bir yilgacha hech qayerda ashula aytmaysiz. Bir yildan so‘ng bu ovozingiz bilan O‘zbekistonning eng taniqli san’atkorlaridan biriga aylanasiz”, degan edi. Shundan so‘ng Shavkat aka uyimga ham bordi. Lekin… Taqdir ekan, men Toshkentga ketolmadim. Balki o‘shanda oilaga katta yordamim tegib turganini o‘ylagandirman. Oilamiz katta – akam o‘qirdi, ukalarim juda yosh edi. Faqat Xo‘jand va uning atrofida emas, O‘zbekistonga ham ko‘p to‘yga borardim. Masalan, lof emas, Zominning yarim aholisining to‘yida xizmat qilganman. Ustiga ayam Toshkentga ketishimga rozilik bermagan o‘shanda.

– Siz Tojikistonda qolib ham, har ikki mamlakatda shuhrat topdingiz, e’tirof etildingiz. Har ikki mamlakatda davlat miqyosidagi konsertlarda qatnashyapsiz. O‘zbekistonda bo‘lganingizda jadidlar, ta’lim masalasiga katta e’tibor berilayotgani haqida eshitganlaringiz haqida hikoya qilib berdingiz. Sizningcha, san’atda ham jadidlik bormi?

– Bo‘lganda qandoq?! Mana, masalan, jadidlar teatr san’atiga juda katta e’tibor berishgan. Xalqning ko‘zini ochishda, ma’rifat tarqatishda teatrning o‘rni katta, deb bilishgan. Biz hofizlar ham o‘z ashulalarimiz, qo‘shiqlarimiz bilan xalqni olg‘a, yangiliklar sari boshlaymiz, odamlarni ruhlantiramiz. Masalan, bittaginasini ayta qolayin: Toshkentda Botir Zokirov nomli estrada instituti tashkil etildi. Uning bevosita tashabbuskori Prezident Shavkat Mirziyoyev bo‘ldi. Ayni paytda O‘zbekistonda an’anaviy san’atni rivojlantirish ham jadal davom etmoqda, “Shashmaqom”, Xalq baxshichiligi festivallari… Qay birini aytasiz.

– San’atsevar ikki xalq ko‘nglidan joy oladigan go‘zal ijrolar, ajib kuy-qo‘shiqlar yaratishdan to‘xtamang. Vaqt ajratganingiz va mazmunli suhbatingiz uchun rahmat.

O‘rinboy USMON suhbatlashdi.

GURKIRAGAN GUL

– Qirq yil ishladim, minglab odamni davoladim, yuzlab shogirdlar tayyorladim. Guldan boshqa sovg‘a olgan emasman. Halqumim toza bo‘lgani uchun ham ortimdan uyushtirilgan fitnalar yuzimni yanada yorug‘ qilaverdi, – deydi uning o‘zi.

Opa nafaqaga chiqqach, Mirzacho‘lda dastlab ishlagan tuman tibbiyot birlashmasining ichki kasalliklar bo‘limiga qaytib, terapevtligini davom ettirdi. Tez orada mamlakatda xususiy tadbirkorlik uchun ochilgan imkoniyatlar uni yana ruhlantiradi. “Ibn Sino izdoshi” nomli mas’uliyati cheklangan jamiyat faoliyatini yo‘lga qo‘yib, ishni o‘zi yuritdi. Avval boshida shifokorlik, hisobchilik, hatto farroshlikni ham o‘zi bajardi.

Viloyat rahbarlaridan birini ko‘pdan qiynayotgan dardga birgina muolaja bilan davo topgani xayrli bir ishning boshlanishiga sabab bo‘ladi. Shifokori sabab davo topgan bemor unga faoliyatini kengaytirish yo‘lida g‘oya beradi. Sabohat opa zukko ayol emasmi, dastavval bu g‘oyani amalga oshirish uchun mavjud huquqiy asoslarni o‘rganib chiqadi. Tashlandiq binoni tenderda yutgach, uni qayta ta’mirlash uchun uch yuz million so‘m kredit oladi. Binoni kapital ta’mirlash uchun qurilish firmasiga pulni o‘tkazadi. Biroq firibgar firmaga aldanib qoladi. Sudma-sud yugurib, o‘tkazgan kredit pulini qaytarib ololmaydi.

Sabohat opa tushkunlikka tushmadi. Bor-u yo‘g‘ini sarflab, buzib qayta qurmoqchi bo‘lgan xaroba binoni u yoq-bu yog‘ini epaqaga keltirdi, ko‘ngli to‘lib-to‘lmay ishni boshlayverdi. “Ibn Sino izdoshi” nomli xususiy klinikani ishga tushirdi. O‘n besh ish o‘rni yaratdi. Tibbiy xizmatning deyarli barcha turlari bo‘yicha mutaxassislarni jamlab, ish boshladi.

Payariqning Tomoyrot qishlog‘ida tug‘ilgan qahramonimiz ota-onasining o‘qimagan bo‘lsa-da, ziyolilar kabi hayot kechirganini alohida ta’kidlaydi. “Otamni ishiga nisbat berib, ko‘pchilik “Burhon pochtachi” derdi. Urush ko‘rgan otam sakkiz qiz tug‘gan onamni o‘g‘il ko‘rmadik, deb ko‘zini yoshlatgan emas. Xudo suyib, to‘qqizinchi bo‘lib ukamiz tug‘ildi”, deydi u.

“Burhon pochtachi”ning qizi ilmga tashnalikni otaning qonidan, onaning jonidan yuqtirdi. Maktabni oltin medal bilan, tibbiyot texnikumini ham, institutni ham qizil diplom bilan tugatdi. Sabohat opa maktab davrini eslar ekan:

– Eng a’lochi o‘quvchilar safida bo‘lganman. Aniq fanlarga qiziqishim balandligini anglagan matematika muallimimiz dam olish kunlarida meni Samarqand davlat universitetida tashkil etilgan oliy matematika kurslariga olib borar, kelajakda olima bo‘lishim uchun astoydil rahnamolik qilardi. Shifokorlikka qiziqishim meni tibbiyot bilim yurtiga yetakladi. Umidi puchga chiqqanidan xafa bo‘lgan ustozim arazlab, Samarqand davlat tibbiyot institutining talabasi bo‘lgunimga qadar salomimga alik olmay yurdi. 1978-yilda oliy o‘quv yurtiga eng yuqori kirish bali bilan qabul qilindim. Mandat bo‘ladigan kuni oilamiz uchun quvonch va musibat birga keldi. 13 yashar eng kichik singlim shu kuni og‘ir xastalikdan vafot etdi. Onamning qistovi bilan mandatga ketdim. Aslida o‘qishga kirishim aniq edi. Chunki asosiy fan – ximiyadan imtihonni beshga topshirgandim. Otam bilan onam musibat ustida ham meni o‘ylashgan, “o‘qishga kirdim”, degan xursandchilikni his etishimni istashgan. Ko‘pchilik mandatdan o‘tolmadim, deb yig‘lasa, hammani hayratda qoldirib men ham yig‘lab chiqdim. Bir ko‘zimdan quvonch, bir ko‘zimdan alam yoshlari oqdi...



Bilim olishga mukkasidan ketgan, har jabhada qat’iyat bilan qadam tashlagan Sabohat opa ikki o‘g‘il, bir qizni tarbiyaladi, o‘qitdi, uyli-joyli qildi. Qolaversa, jizzaxliklarning ham ijtimoiy, ham siyosiy hayotida kamarbasta. Xalqqa qilgan xizmatlari munosib e’tirof topib, 2021-yilda I darajali Salomatlik ordeni bilan taqdirlandi.

Sabohat Azimova bilan suhbatim yuragimga nur tushirdi. Jamiyatning qahramonimiz kabi “o‘tda yonmas, suvda cho‘kmas” ayollari bor ekan, hayot davom etaveradi. Xalq xizmatidan baxt topgan shifokor ayol bugun Mirzacho‘l kengliklarida hayot atalmish go‘zal bog‘ barpo etib, o‘zining va hamyurtlarining umrini baxt-u quvonchga burkayotir...

Muhayyo PIRNAFASOVA

HIKOYA

TURSUNBOYNING SARGUZASHTLARI



Orziqul ERGASH

Qayerda bo‘lmay, uchala otdoshim yonimda. Kozlov ham, Tabib ham, Pakana ham. Kozlov deganimiz menga o‘xshab naynovgina. Nega unga Naynovmas, Kozlov deb laqab qo‘yganimiz sababi... maktabimizga yangi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi keldi. Kozlov degan. Shu odam kelishi bilan katta yangilik qildi. Voleybol maydonchasi qurdirdi. Hamma qiziqib ketdi bu yangi o‘yinga. Ayniqsa, haligi naynov otdoshim voleybol jinnisiga aylandi-qo‘ydi-da, Kozlov laqabini orttirib oldi.

Yana biri haligi Achaqiz tabibning jiyani. U jiyanligi uchun emas, hammaga aql o‘rgataverganidan Tabibga aylandi.

Pakana laqabi sababiga izoh kerakmasdir. Lekin keyingi paytlar bo‘yi ancha cho‘zilib qoldi. Maktabda turnikka, dala-dashtda daraxtlarga ko‘p osildi shekilli-da. Biz bo‘lsak buni atay sezmaganga olamiz. Pakana deb chaqiramiz.

Hamisha, hamma yerda birgamiz.

Qo‘limiz ishdan bo‘shadimi, xilvat Archamozor tog‘iga chiqib ketamiz. Archamozor tepasida sinfxonamiz sahnicha keladigan Silliq tosh bor. Muqaddas tosh. Uni tavob qilib, nima tilak qilsang, tilagingga yetasan ekan. Biz to‘rttala Tursunboy ham har gal chiqqanimizda avval Silliq toshni obdon tavob qilamiz. Biz yetimlar qachon odam bo‘lamiz, qachon qornimiz to‘q, egnimiz but bo‘ladi, deb oz-ozdan yig‘lab ham olamiz. Keyin o‘zimiz bilan opkelgan zog‘orami, o‘rik qoqimi, baham ko‘ramiz. Danag-u yong‘oqlarni chaqib yeymiz. Keyin Silliq tosh ustida o‘tirgancha atrofni tomosha qilamiz. Pastdagi hamma narsa: hovlilar, ko‘chalar, dalalar, g‘imirlab yurgan jon borki kaftdagiday aniq-tiniq ko‘rinib turadi...

Bir kuni Kozlov deganimiz, uni qaranglar, anovi Uzoqvoy akani budkasimi, deb qoldi. Budka deganida sartaroshxonani tushunamiz. Keyin Uzoqvoy sartarosh haqida rosa gurung berdi. Aytishicha, uni “Амбарная книга” degan qalin daftari bor emish. Daftarda qishloqda qancha odam bo‘lsa, hammasini ismi-sharifi alfavit bo‘yicha yozib qo‘yilganmish. Masalan, Tepa mahalla, falon uyda, falon-falonlar yashaydi. Yoshi, kasb-kori va hokazo...

– Unga bu nimaga kerak ekan? – dedim hayron bo‘lib. – Bor-yo‘g‘i bir sartarosh bo‘lsa...

Kozlov yelka qisdi.

– Bilmasam...

– Nega bilmaysan, u NKVDni odami-ku! – dedi Pakana bamaylixotir.

– NKVD? Yo‘g‘-e, shu odam-a? – dedim ishonqiramay. – Men ulardi ko‘rganman. Hammasi qop-qora charm kamzulda, shapkada edi. Qarashlaridan ot hurkadi. Yumshoqqina Uzoqvoy amaking qanaqasiga NKVD bo‘lsin...

– Ha, u yumshoqqina bo‘lib yuradi, – dedi oshnam gapimni bo‘lib. – Ko‘rgan bittani jon-jonlab gapiradi. Jon-jonlab jonini oladi. Bilmagan bo‘lsang, bilib qo‘y: Abdulla rais ana shu kasapatti kasriga qamalgan. Yaxshiyam odamlar qattiq turib olishgan. Emasam, haligacha yotgan bo‘lardi, Xudo deb.

– Yo‘g‘-e! Qanaqasiga? Uzoqvoy kim bo‘ptiki...

– Uzoqvoy NKVDni odami, – dedi Pakana cho‘rt kesib. – U qishloqda nima gap-so‘z bo‘lsa, yuqoriga yetkazib turadi.

Xayolimga kelgan so‘zdan yuragim shuv etib ketdi.

– Bundan chiqdi...

– Xuddi shunday. Sizlardikiga ham shu odamdi chaquvi bilan borishgan. “Mulla Abdumajiddi uyida eskicha kitoblar bor. Kechalari uyiga odam to‘plab, kitobxonlik qiladi. Odamlardi ongini zaharlayapti”, degan.

Ko‘zlarimga ham, quloqlarimga ham ishonmay qolgandim. Bu bola o‘sha o‘zimizdi pakanami yoki...

– Menga qara... rostmi shu gaplar? A, sen qayerdan bilasan bularni?

– Bitta menmas, mana Kozlov ham, Tabib ham biladi.

Sheriklarimga qaradim. Ular ham bosh irg‘ab tasdiqlashdi.

– Unda nega?

– O‘zingdi ham xabaring bo‘lsa kerak deganmiz-da. Butun qishloq biladi-ku... – dedi endi Tabib ham tilga kirib.

– Baribir bir narsaga tushunmayapman... Abdullajon raisday bir odamni qamatgan bo‘lsa, nega hech kim hech narsa demaydi unga?

– Ha, demaydi, deyolmaydiyam, – dedi Pakana kesib-kesib. – Chunki, u NKVDni qulog‘i. Davlatti odami!

Ko‘z oldimga bundan uch yil avvalgi manzara keldi. Boloxona. Kigiz ustidagi namgarchilikda hilvirab ketgan kitoblar. Kitoblar azasini tutib, yosh boladay ich-ichidan sitilib, sim-sim yig‘lab o‘tirgan bobojonim... “Bobojonimni, uning kitoblarini bu ahvolga solgan odamlarni izlab topaman. Ulardan, albatta, o‘chimni olaman!” deya ahd qilgandim o‘shanda.

Mana, uni topdim. Endi ahdimdi ustidan chiqishim kerak, o‘chimni olishim kerak! Lekin qanday qilib? Abdullajon raisday odam har dami ichida yurganida, menga yo‘l bo‘lsin. Eh, bolalikning qo‘li qisqa bo‘ladi, degani rost ekanda!

Men do‘stlarimga qaradim. Ular shartta o‘rinlaridan turib, oldimga kelishdi. Sababi, ko‘zlarim jiqqa yoshga to‘lgan ekan, o‘zim sezmabman.

– Nima qilamiz? – dedim.

– Nima desang shu! – deyishdi bir ovozdan. Keyin yonimga o‘tirishdi.

– Budkasiga o‘t qo‘yamiz! – dedim. Xayolimga dastlab kelgani shu bo‘ldi.

– E, yo‘q, – dedi Pakana bosh irg‘ab. – Bo‘lmaydi. Uning qo‘li uzun. Qochib qutulolmaymiz. Juvonmarg bo‘p ketamiz.

Tabibga jon kirdi.

– Bitta ish qilamiz, – dedi.

Unga yalt etib qaradik.

– Qovun o‘g‘irlaymiz.

– Nima!!! – dedik baravariga.

– Qaranglar, – dedi u baland-baland tol, teraklar oralab oqib yotgan Sanoch soyni ko‘rsatib. – Huv o‘sha chekkadagi polizdan o‘g‘irlaymiz.

– Ey, odamga o‘xshab gapir, – dedi Kozlov toqati tugab. – Nima balo, alahsirayapsanmi? Biz Uzoqvoy haqida gapiryapmiz.

– Men nima deyapman!

– Sen ko‘rsatgan joy O‘skanboyniki-ku!

– Bilmasang, bilib qo‘y. O‘sha O‘skanboying Uzoqvoy bilan sheriklikda dehqonchilik qiladi.

– O‘ylab ko‘rish kerak, – dedi Pakana sekin o‘rnidan turib. Bir-ikki u yoqqa, bu yoqqa borib keldi-da, qaytib o‘tirdi. – Bu ishimiz bilan bechora O‘skanboyga ziyonimiz tegib qolmasin.

– Tegsin-da, – dedi Tabib qat’iy qilib. – Uzoqvoy bilan oshnami, demak uyam quloqlardan. Ular bekorga sherikchilik qilishmaydi.

Bu gap jo‘yali tuyulib, hammamiz jim qoldik. Tabib davom etdi.

– Bu kecha razvedka qilamiz. Ahvolni o‘rganamiz. Keyin jiddiy ishga o‘tamiz...

* * *

Yarim kecha.

Oy chiqqan.

Atrof suv quygandek jim-jit.

To‘rt og‘ayni tizilishib poliz chekkalab boryapmiz. Go‘yo xotirjamdaymiz-u, baribir ichimizda ozgina hadik bor. Ichimizdagi tashimizga chiqmaydi. Tashimizga chiqsa bo‘ldi, to‘rt hadik birlashib, bizdi qo‘rqoqqa aylantirib qo‘yadi. Va mana bunday bemalol, bexavotir emas, xuddi o‘g‘ri mushukka o‘xshab pusib yuramiz keyin. Biz buni istamaymiz. Chunki maqsadimiz o‘g‘rilik emasda. Maqsadimiz – anovilardi andak hurkitib qo‘yish. Qachongacha ulardan qo‘rqishimiz kerak. Qachongacha chaqimchi, sotqinning oshig‘i olchi bo‘lishi kerak. Mulla bobomning kimga yomonligi bor edi. Aybi kitobxonligimi? Odamlardi kitobga qiziqtirganimi? Zamonning aynigani shu-da!

Xullas, bir yerlarda to‘xtab poliz oraladik. Yo‘l-yo‘lakay har birimiz bittadan tarvuzni palagidan uzib oldik. Qamish-qiyoqlar qalin o‘sgan bir yerda o‘tirib, tarvuzlarimizni tars-turs yorib, chala-chulpa yeb tashladik. Pichir-pichir qilib, ertangi ishimiz rejasini qildik. Keyin bittadan qovun ko‘tarib, yo‘lga tushdik.

Atrof jimjit, xavotirli bir narsa sezilmasdi...

* * *

Shom mahali.

Archamozordagi Silliq tosh yonidamiz.

Endi to‘rttamas, o‘n bitta o‘g‘lonmiz. Tabibning xabar yetkazishicha, kapa yaqinida bir aravacha keladigan tarvuz-qovun uyub qo‘yilgan ekan. Demak, ishimiz osonlashibdi. Poliz oralab yurmaymiz.

Silliq tosh ustida tun yarmiga qadar gurunglashib vaqtni o‘tkazdik. Keyin reja bo‘yicha ishga kirishdik.

Hammamiz yarim yalang‘och, chirmandani takillatib, toshfonarni bilanglatib, o‘yinga tushib, qiy-chuv bilan pastga ena boshladik...

Endi bir tasavvur qip ko‘ring: tun yarmida, tog‘ boshida tuyqusdan chirmanda takillab qolsin. Allanening bilanglagan yorug‘ida shir yalang‘och jinvachchalar raqsi boshlanib ketsin. Boz ustiga chirmanda takillashi-yu jazavali qiy-chuvlarga tog‘-u toshlar aks sado berib tursin... Jinvachchalarning jilpanglagan soyasi chor atrofni qoplab olsin... Yana deng, “jinlar raqsi” shitob bilan pastlikka enib, ustingga bostirib kelaversin...

Manaman deganning ham yuragi uvishadimi, uvishadi. Bir hadigiga o‘n hadik qo‘shilib, juftagini rostlab qoladimi, rostlab qoladi...

Alqissa, chirmandani takillatib, toshfonarni bilanglatib, qiy-chuv ko‘tarib, pastga tushib boryapmiz. To‘g‘ri O‘skanboyning kapasini mo‘ljalga olganmiz.

Kapaga yetib keldik hamki, jon zoti ko‘rinish bermadi. Kim jonidan to‘yganki, jinlar qarshisiga chiqsa...

Bolalar childirmani, qiy-chuvni to‘xtatmay, raqsga tushaverdi, biz Kozlov ikkimiz, kapa ichiga mo‘raladik. Juftakni rostlab qolishibdi. Vaqtni o‘tkazmay, ishga kirishdik. Bozorga deb uyub qo‘yilgan bir arava qovun-tarvuzni bitta qoldirmay Sanoch soyga oqizdik. Etakda, qishloqqa yaqin yerda sheriklarimiz kutib turardi, albatta.

* * *

Ertasiga quloq tutib yurdim. Qishloqda “jinlar raqsi” haqida gap-so‘z bo‘lmadi. Menimcha, O‘skanboy chuv tushganini sezsa ham, birovga churq etmagan. Kulgiga qolishdan qo‘rqqan. Biz ham uni anchagacha bezovta qilmadik. Orqasini sovutmoqchi bo‘ldik-da.

Bir haftalar o‘taverdiki, “o‘g‘rilikdi xumori” tuta boshladi. To‘rt og‘ayni tun yarmida yana yo‘lga chiqdik.

Poliz yoqalab boryapmiz. Bir yerlarga bordik-da, atrofga qarab olib, sekin ichkariga qadam bosdik. Lekin bu safar biror palak ustida to‘xtab egilishga ulgurmadik. Kapa tarafdan hushtak eshitildi. Turgan yerimizda tek qotdik.

– Ho‘, yigitlar, – degan ovoz keldi hushtak ketidan.

“Uh, Sotvoldi aka! – darhol tanidim men ovoz egasini. – O‘ldik!”

– Kozlov, qochdik, – dedim ovozim qaltirab.

– Nima deding?

– O‘skanmas... Sotvoldi aka, ketdik, tez bo‘l!

Zuv-zuv yugurib soy bo‘yiga chiqib oldik. Orqamizdan novcha Sotvoldi aka zipillab kelyapti.

Katta sada degan joy bor. Shunga yetganda to‘rtovimiz uch tarafga – bittamiz O‘ng‘ortoqqa, ikkitamiz chapga – Qapchig‘ayga, men to‘g‘riga Poday qishloqqa qarab yo‘l soldik.

Bunday qarasam, Sotvoldi chopqir mening ketimdan tushgan. Qishloq chekkasiga yetdim, o‘zimni ichkariga urayinmi, aylanib o‘tayinmi, deb turganimda Sotvoldi aka baqirdi.

– Ho‘, Adashvoy akamdi o‘g‘li, sen bolani bunaqa chopqirligingdi bilmas ekanman. Bo‘ldi, tan berdim, – dedi. Oramiz ikki yuz qadamcha. – Qaytdik, bo‘ldi, sinovdan o‘tding! – Shunday dedi-yu orqa o‘girib keta boshladi.

Oraliq masofani saqlab, qo‘rqa-pisa unga ergashdim. Safed Bulonga yaqinlashganda ikki tarafga qochgan jo‘ralarim ketma-ket hushtak chalishdi. Kelaveringlar, deganday hushtak bilan ishora berdim. Sotvoldi aka qishloq etagida kutib turdi. Undan olisroqda to‘xtadik.

– Iye, bularing ham Tursunboy-ku, – dedi Sotvoldi aka turgan yeridan. – Topdimmi? Bittasi Ikromov Tursunboy, narigisi Bo‘riboyev, yana biring Turg‘unboydi o‘g‘lisan, to‘g‘rimi? Bu uchchoviniyam akasi menga jo‘ra bo‘ladi. Seni tog‘ang ham jo‘ram, yaqin jo‘ram. Endi O‘skanboy akani qiynamanglar, xo‘pmi, ertalab kapaga o‘tinglar.

Keyin ketdi polizga qarab. O‘rtoqlarim yonimga kelishdi.

– Yetib olmadimi? – dedi Pakana.

– E, qayoqda! Yetkazmadim!

– Boplabsan. Nima dedi? – deya so‘radi Kozlov.

– Chopqir ekansan, bilmabman, dedi.

– Yana nima dedi?

– Ertalab poliz kapaga kelinglar, dedi.

– E, bormaymiz, uradi... – dedi Tabib. Oramizda u sal yuraksizroq.

– Yo‘q, nomardlik qilmaydi, boramiz, – dedi Pakana.

Ertalab to‘rt og‘ayni poliz kapaga yetib kelganimizda ikki qariya, biri O‘skanboy amaki, choy ichib, Sotvoldi aka katta bir qovunni so‘yib, tiliklab turgan ekan. Meni ko‘rishi bilan o‘tirgan yerida qaddini rostladi-da:

– Ana, yigitdi xo‘rozi keldi, – dedi baland ovozda. – Adashvoy akamdi o‘g‘li. Shuncha ketidan yugurdim, yetolmadim. Manovilari ikki tarafga qarab tirqirab ketdi... Qani, o‘tiringlar, azamatlar.

Sekin O‘skanboy amakiga razm soldim. Lab-dahaniga uchuq toshib ketibdi. Bizga qaragisi ham kelmaydi.

– Endi O‘skanboy aka, bulardi kechiring. Bolalik qip qo‘yishibti. Hammamiz ham bola bo‘lganmiz. Mana o‘zingiz, a, boshqalar bilmasa ham men bilaman-ku. Endi... o‘tgan ishga salavot. Xo‘p, kechirdingiz-a. Ayting, kechirdim deng.

O‘skanboy kechirdim, deb aytmadi-yu, baribir shu ma’noda bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Ha, yashang! Qani endi, qovunga qaranglar. O‘skan aka, boshlab bering.

O‘skanboy amaki sherigiga qaradi. Sherigi qovunga qo‘l cho‘zdi. Ular uchta, biz to‘rtovlon qovun yeyishga tushdik...

Bitta qovun yetti kishidan ham ortdi. Bizga qolganda-ku, ortmasdi-ya, o‘zimizni tiydik-da.

Birovimiz qumg‘onda suv, birovimiz sochiq keltirib, birimiz chollarning qo‘liga suv quydik. Sotvoldi aka qo‘lini chayib, artindi-da, e, barakalla, deya joyiga qaytib o‘tirdi. Keyin:

– Qani oqsoqol, endi bir duo qiling, – dedi O‘skanboyning sherigiga. – Bular bilan bir gaplashib olay...

“Obbo, – dedim men xavotirda. – Endi rosa dodimizni bersa kerak!”

Qariyalar ketishdi. Sotvoldi aka kapadan chiqib, to‘rtta qovun ko‘tarib kirdi-da, bittadan yonimizga qo‘yib chiqdi. Indamay bosh egib o‘tiraverdik.

– Mana ko‘rdilaring, – dedi u bir tomoq qirib olib. – Holimiz shu ekan, yettovlashib ham bitta qovunni yeb bitirmadik. Lekin... – u birpas jim qolib, har birimizga bir-bir qarab chiqdi. – Ko‘zimiz och. Chanqovbosdiga bir piyola suv kifoya, bir kosa ichgimiz keladi. Sizlardi unaqa nafsi bejilov demayman. Havasga tushgansizlar, topdimmi? O‘zimam bir zamonlar... ha, mayli, yoshlikda bo‘ladi. Lekin havasdi hunarga aylanib qolishi chatoq. Adashvoy akamdi o‘g‘li, chopqir ekansan. Tan berdim. Adashlaring ham chakki emas, a, to‘g‘rimi? – Yerga ko‘z tikib o‘tirgancha, bosh irg‘adim. – Ha, yashanglar. Endi bu yog‘iga ishdi bilib qilinglar, jiyanlarim, uyatga qolib yurmanglar tag‘in. Xudo ko‘rsatmasin, bu gaplar tog‘angdi, mulla bobongdi qulog‘iga yetib qolsa, nima degan odam bo‘lasan... Bo‘pti, boringlar.

Oson qutulganimizdan yengil tortdig-u, baribir ko‘nglimizda bir g‘ashlik qoldi. Bu odam nima deb o‘yladi ekan. Axir biz o‘g‘rilikka tushmagandik-ku. Maqsadimiz boshqa edi-ku! Lekin buni unga qanday tushuntiramiz.



Orziqul ERGASH – 1953-yili Samarqand viloyatida tug‘ilgan. Adibning “To‘y”, “Dunyoning bir chekkasi”, “Bolaligim ko‘chalarida”, “Shohsanam”, “Darxon qissalari”, “Qalb gavhari”, “Yulduzsiz osmon”, “Tanlangan asarlar” kabi nasriy kitoblari nashr etilgan.

U 1999-yili “Do‘stlik”, 2023-yili “Mehnat shuhrati” ordenlari bilan taqdirlangan.

SHE’RIYAT



Shahriyor SHAVKAT – Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida tahsil olgan. “Ruhim qushlari”, “Ham” nomli kitoblari nashr etilgan. Hozirda “Mahalla” telekanalida katta muharrir vazifasida faoliyat olib bormoqda.

Shahriyor SHAVKAT

Hayrat bosib kelar balandroq

LAHZA

Sen gullar rasmini chizarsan:
Yaproqlaru yashil gilamlar.
Barmog‘ingni bir o‘pmoq uchun
Navbat kutar rangli qalamlar.

Men chelak rasmini chizarman,
Bilasan-ku, bor hunarim shu.
Men chelak rasmini chizarman
Keltirgani gullaringga suv...

***

“Men boshqani sevaman, kechir,
U ham go‘zal, bamisli Layli,
Gar aldasam, labini tishlab,
Qovog‘ini uyib qaraydi!”

Bu so‘zimdan qo‘rqib ketdi qiz,
Shart qaradi ko‘zlari ko‘zgu.
“U kim?” dedi,
Labini tishlab,
Qovog‘ini uyib olib u!

***

Chiqib ketging kelmaydi tundan,
Oromingga quyilsa g‘ulg‘ul.
G‘urob tomib tursa uzumdan,
Yonginangda kuylasa bulbul.

Peshayvonda qatiq to‘rva ham
Satilga yosh yo‘llaydi – zardob.
Hayotidan mamnunmi karam,
Ichgani nur, kiygani zarbof?!

Ruboiylar yoqib ichingni,
Yuragingni sharshara qilsa,
Qurbaqalar yolg‘izligingni
Tomog‘ida g‘arg‘ara qilsa...

Shovullasa daryo jununvash,
Yoshligini qo‘msab yotsa tol.
Tomog‘ingni o‘langa o‘xshash
Alangalar chulg‘asa alhol...

Chiqib ketging kelmaydi tundan!
Hayrat bosib kelar balandroq.
Chiqib ketging kelmaydi chindan,
Evoh, buning chorasi qandoq?!

***

Kipriklaring og‘irlashdi jim,
Ko‘tarmoqqa yetmadi kuching.
Yuzlaringga botdi nigohim,
Shunda paydo bo‘ldi kulgiching…

Shabnam kabi nurga to‘yingan,
Yurak zarbim bilan hamohang,
Bitta-bitta barmoqlaringdan
Tomchiladi yelkamga ohang!

Sharhu shakli nimadir kuzning,
Noyabrda gulladi ochun.
Shivirladim, mas’uma qizning
Ruhi bo‘ylab yugurdi afsun.

Ey, telbalik ichra topganim,
Ey, ko‘nglida ojiza jur’at.
Xudo bergan hisni totgani
Odamlardan so‘rama ruxsat!

O‘z erkimni etgani tahqir,
O‘zing ayt-chi, birov haqlimi?
Kulgichingdan olganman axir,
Sening baxting bo‘lish baxtini!

KEZIB...

Shamdek miltillaydi ko‘zlaring...
Nafasim
o‘chirib qo‘ymasaydi deyman!
Tonggi yomg‘irdayin shivirlab
sochlaringga she’rlar o‘qiyman.

G‘amgin bedazorlar shalabbo...
Qushlar quchoqlashib panada
qaynatur tumshuqda murabbo –
suhbat shirinlashur yanada...

Kezdim.
Etigimdan o‘tmadi
maysalarga to‘kilgan izhor.
Barra bedalarni tush ko‘rib
yurgan
yuragim bir to‘yib o‘tladi!
Endi u pishqirib-pishqirib
kutar ko‘pkarini intizor...

Tag‘in
shamdek miltillaydi ko‘zlaring
shundoq yuragimning yonida...

Ammo...
Shashtim maqsadimga munosib,
achinmasman baxtimga aslo,
bir juft shamni bag‘rimga bosib
yashab o‘tsam yomg‘irlar aro...


25-OKTYABR – PIRIMQUL QODIROV TAVALLUD TOPGAN KUN

OLIS VA YAQIN XOTIRALAR



Eshqobil SHUKUR,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Bundan 47 yil muqaddam, 9-sinfda o‘qib yurgan kezlarimda, Shahrisabzda adabiyot fani bo‘yicha olimpiadada ilk marta O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov bilan uchrashganman. Olimpiadaning oxirgi kunlarida Pirimqul aka mashhur olim Matyoqub Qo‘shjonov bilan birga Shahrisabzga keldi. O‘zbek adabiyotining bu ikki darg‘asi bilan bo‘lgan uchrashuv orzular osmonida uchib yurgan biz o‘quvchilarga qizg‘in hayajonlar bag‘ishlagan edi. Uchrashuvdan so‘ng adib ilg‘or o‘quvchilar bilan alohida gaplashdi. Ular orasida men ham bor edim. Pirimqul akaga ma’qul keldim shekilli, menga uy manzilini berib: “Menga xat yozib turing, she’rlaringizni yuboring”, dedi. Shunday katta yozuvchining bir o‘quvchi bolani sizlab gapirishi va muloqotga undashi meni hayron qoldirgan. Bu e’tiborning o‘zi uch-to‘rtta xom mashqlari havosida masrur yurgan g‘o‘rgina bola uchun katta bayram edi. So‘ng olimpiada tugab, o‘quvchilar uy-uyiga – kapa to‘yiga tarqalishdi.



Pirimqul Qodirov shogirdi To‘lqin Eshbek bilan.

Keyinroq... Surxondaryoning chekkadan-chekka bir qishlog‘i Boymoqliga, “to‘g‘ri kelgan narsani she’r deb kuylab”, qog‘oz qoralab yurgan bir o‘smirga kimsan O‘zbekistonning ulkan adibi Pirimqul Qodirovdan bir necha marta xatlar borgan. Shunday mashhur yozuvchining bir maktab bolasi uchun vaqt ajratib xat yozishi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, mashqlariga fikr bildirishi katta gap edi. Bunday mehr va samimiyat har kimning ham haddi emas. Ba’zan men hozirgi yoshimda chekka bir qishloqdagi biror bo‘z bolaga shunday himmat va rag‘bat ko‘rsata olamanmi, deb o‘zimga savol berib ko‘raman va javobda ikkilanib qolaman. Bu xatlar menga qanot bergan. Ularni saqlab qololmaganimga mudom achinaman. Ular menga qadrdon edi. Garchi yillar shamoli xatlarni qaylargadir qushlarday uchirib ketgan bo‘lsa-da, ular qalbimga muhrlangan.

Menga Pirimqul akaning ko‘p yaxshiliklari o‘tgan. Maktabni bitirgan yilim mamlakatning eng nufuzli jurnali “Guliston”da she’rlarim chiqdi. Men “Guliston” jurnalining manzilini ham bilmas edim. Tahririyatga she’r yuborganim ham yo‘q edi. Bu men uchun kutilmagan hayajonli voqea bo‘ldi. U paytlar “Guliston”da chiqish degani katta yo‘l uchun fatvoday gap edi. Chunki bu jurnalning boshida asr donishmandi Asqad Muxtor turardi. Keyin bilsam, Pirimqul Qodirov Asqad Muxtorga mening mashqlarimni tavsiya qilgan ekan.

Toshkentga o‘qishga kelganimdan so‘ng Pirimqul akaning ko‘p gurunglarini olganman. Juda madaniyatli, bag‘rikeng, doimo fikri-zikri yozayotgan asari bilan band bo‘ladigan zahmatkash bir inson edi. Hamma narsani teran nigoh bilan kuzatardi. Bir kuni Pirimqul akaning Asqad Muxtorga qo‘shni uyida o‘tirganimizda, u kishi menga o‘sha kunlari yozayotgan yangi asarining qo‘lyozmasini ko‘rsatdi. Qo‘lyozmani ko‘zdan kechira turib, bir narsadan ajablanganman. Bir varaq oq qog‘ozda bor-yo‘g‘i 8 yo 9 qator yozuv yozilgan, har bir qator orasi 3-4 santimetr ochiq qoldirilgan. Aslida qo‘lyozmada bir sahifaga 30 qatorgacha yozuvni sig‘dirsa bo‘ladi. Lekin bu qo‘lyozmaning hamma sahifalaridagi ochiq joylar dehqonning ekin ekilmay qolgan yeriday bo‘sh yotardi. Ko‘nglimdan “Pirimqul aka qog‘ozni rosa isrof qilar ekan-da”, degan o‘y o‘tdi. Kuzatuvchan, farosatli odam emasmi, darrov dilimdagini fahmladi. “Men ataylab qator orasini ochiq qoldiraman, – dedi u qo‘lyozmaga qo‘li bilan ishora qilib. – Buning boisi yozganlarimni keyin qayta ishlayotganda varaqdagi ochiq joylar menga juda asqotadi. Tahrirtalab joylarini o‘zgartiraman, so‘zlar va jumlalar ustida ishlaganimda qog‘ozda bo‘sh joy ko‘p kerak bo‘ladi. Shuning uchun shunday yozaman. Ba’zida bir qo‘lyozmani o‘n marotaba qayta ishlashga to‘g‘ri keladi”. So‘ng Pirimqul aka javondan eski bir qo‘lyozmasini olib ko‘rsatdi. Haqiqatan, butun boshli sahifada bir santimetr ham ochiq joy yo‘q edi. O‘chirilgan, chizilgan, qayta yozilgan, so‘zlar bo‘yab tashlangan, boshqa so‘zlar qo‘shilgan, xuddi asalari uyasiday millimetrlargacha hisobda. Men zahmatkash, fidoyi adibning qo‘lyozmasi bilan yuzma-yuz turardim. Bu men uchun ulug‘ musavvirning tasviriy asarini tomosha qilishday zavqli edi. Shunda men Pirimqul akaning qanday mehnat qilishini his qilganman. Bir so‘z bilan aytganda, Mirtemir domla “nazm dehqoni” deb ta’riflanganiday, Pirimqul aka nasr dehqoni edi.

Adiblarning qo‘lyozmalari ko‘p kechinmalarga guvohlik beradi. Ularning ishlash nizomini, ijodiy salohiyatini, so‘zga munosabatini, badiiy didini, farosatini ko‘rsatib turadi. Qo‘lyozma insonning ichki qiyofasining oynasi kabidir. Lekin afsuski, biz qo‘lyozmalar yo‘qoladigan asrda yashayapmiz. Keyingi asrda qo‘lyozmalar bo‘lmaydi. Hatto imzolar saqlanib qolishi ham dargumon. Bu esa bani basharning katta yo‘qotishlaridan yana biri bo‘lishi tayin.

Bir gal Pirimqul akaning uyiga borganimda, u kishini qattiq xafa holda ko‘rdim. Juda madaniyatli, vazmin, sabrli, har narsaga ma’rifat ko‘zi bilan qaraydigan bu donish adib odatda ranjini birovga sezdirmas edi. Uning teran nigohli katta-katta ko‘zlarini mung qoplagan. Hamma narsani ichiga yutadigan tog‘day og‘ir bu odam portlash oldida turardi. Uning atrofida kechayotgan suronlardan xabarim borligi uchun ne derimni bilmay turganimda, birdan o‘zi yorilib qoldi: “Men Boburni noto‘g‘ri ulug‘lagan emishman. U imperator, yovuz podsho emish. Men Boburni ideallashtirgan emishman. Podsholar haqida bunday asarlar yozish mumkin emas emish.”

O‘shanda “Yulduzli tunlar” romani ayovsiz tanqid-u ta’qibga uchragan, shaxsan Markazqo‘mning ideologiya kotibi g‘azab otiga minib olib, mamlakat bo‘ylab chang-to‘zon ko‘targan, qizil minbarlarda pishqirib Bobur Mirzoga qarshi qilich yalang‘ochlab chiqqan kunlar edi. Aslida Boburning bitta nigohi qarshisida yetti bukilib qoladigan bunday kimsalar besh yuz yil avval xoinlar xiyonati bilan vatandan ketishga majbur bo‘lgan bobomizning nomini endi kitoblardan, matbuot sahifalaridan, televizor ekranlaridan, yanayam aniqrog‘i, millat xotirasidan o‘chirishga bel bog‘lagan edi. O‘n yillik juda mashaqqatli mehnatning samarasi bo‘lgan “Yulduzli tunlar” romani bu siyosiy fitnaning markaziga tushib qolgandi.

Men o‘shanda Pirimqul akaning ahvolini tushunganman. U o‘zini haqoratlanganday, xo‘rlanganday his qilardi. Shunday katta xizmatni qilgan odam tuhmatga qolib o‘tirardi. Holbuki, Oybek domla “Navoiy” romani bilan Alisher Navoiy siymosini qanday porlatgan bo‘lsa, Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” romani bilan buyuk Bobur siymosini shunday porlatdi. Hukmron saltanat uchun bunday ulug‘ siymolarning ziyosi qaysidir xandaqlarda ko‘milib ketishi muhim edi. Lekin bu ta’qib-u tazyiqlar qanchalik xatarli bo‘lmasin, roman xalq qalbidan joy olib bo‘lgandi. Endi uni yo‘qotish o‘rtoq Boykenjayevning “aralash qabristoni”ni ochishday jo‘n emasdi. O‘sha vaqtlarda “Yulduzli tunlar” asariga qilingan zulmga nisbatan buyuk adib Chingiz Aytmatov o‘z munosabatini bildirib chiqdi va yozuvchi mehnatini himoya qildi.

Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Qora ko‘zlar”, “Olmos kamar” kabi romanlar, qator qissa va hikoyalar yozib milliy adabiyotimiz xazinasiga ulkan hissa qo‘shish bilan birga mustaqillikning dastlabki kunlaridan “Labbay” deb yurt xizmatini zimmasiga olgan fidoyi adiblardan biridir. U Oliy Majlisda mamlakat kelajagiga daxldor muhim qonunlarning qabul qilinishida, O‘zbekiston bayrog‘i loyihasini ishlashda, Konstitutsiya, davlat tili bilan bog‘liq masalalar va boshqa jarayonlarda faol qatnashgan. Pirimqul Qodirovning ijtimoiy faolligining o‘zi alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzu.

Pirimqul Qodirov haqida gap ketganda, o‘zim ishtirokchi bo‘lgan yana bir voqea borki, uni aytib o‘tishni qarzim deb bilaman. Bu voqea Pirimqul akaning inson sifatidagi yorqin jihatini, samimiyati va mehr-oqibatini namoyon qiladi.

Toshkentga oilam bilan endigina ko‘chib kelgan paytimiz edi. Bir farzandimiz bor. Turar joyimizning tayini yo‘q. Adashgan qushlarday u shoxdan bu shoxga uchib-qo‘nib yurgan kezlarimiz. Endi ishga kirgan vaqtlarim. O‘sha davrning 100 so‘mcha maoshi oyning yarmidan o‘tmay, ado bo‘ladi. Dekabrning oxirlari edi. Devori suvoq qilinmagan, derazasining bir ko‘ziga oyna qo‘yilgan bo‘lsa, bir ko‘ziga karton qog‘oz qoqilgan, kuni temir pechkaga qolgan, bitmagan uyda yashaymiz. Buyog‘i yangi yil bayramiga juda yaqin qolgan. Hamma uylarda bayram tayyorgarligi avjida. Shunday kunlarning birida Pirimqul aka meni uyiga chaqirdi. U yoq-bu yoqdan gurunglashganimizdan so‘ng, u kishi menga chek yozib berdi. “Navoiy-30”ga borib, omonat kassaga uchraysiz, shu chekni ko‘rsatasiz?” Men Pirimqul akaga “Yo‘q, qo‘ying aka”, deganday savol alomati bilan qarab turardim. U kishi buni ham darrov sezdi. “Bu sizlarga, kelinga, o‘g‘lingizga bizdan bayram sovg‘asi. Yangi yilni yaxshilab kutib olinglar”, dedi. Men o‘sha kuni “Navoiy-30”dagi omonat kassadan 120 so‘m pul oldim. So‘ng to‘g‘ri Markaziy univermagga borib, 67 so‘mga ko‘kimtir rangdagi, nimchali kostyum-shim sotib oldim. Bu kostyum-shimni “Pirimqul akam obergan kostyum”, deb maqtanib, uzoq vaqt kiyib yurdim. Qolgan pulga barakali bozor qilib, oilam bilan yangi yilni kutib olganmiz. Bu bayram oilamiz hayotidagi ajoyib bayramlardan biri bo‘lgan.

OYDINLAR

ELBEK – O‘ZBEK TILI JONKUYARI

XX asr boshlarida barcha sohalarda katta islohotlarga bel bog‘lagan jadidlar o‘zbek tilini rivojlantirish va imlo qoidalarini yaratish borasida ham tizimli ishlarni amalga oshirdi. Bunda shoir, publitsist, pedagog va yozuvchi sifatida tanilgan Mashriq Yunusov (Elbek) ning jonbozligini ham alohida aytib o‘tish zarur. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Shoira Bobomurodovaning ayni masaladagi tadqiqotlarini, o‘sha davr matbuotida tinimsiz chop etilgan tilshunoslikka oid maqolalarni o‘qir ekanmiz, Elbekning naqadar jonkuyar tilshunos bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz.



Elbek tilshunoslikdagi faoliyatini “Chig‘atoy gurungi” to‘garagida xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plab, ularning til xususiyatlarini o‘rganish bilan boshlagan bo‘lsa, keyinchalik lug‘at va atamalar ustidagi izlanishlari davomida bu sohaga chuqurroq kirib boradi. 1934-1935-yillarda “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbekcha ma’nodosh so‘zlar lug‘ati” hamda “O‘zbek to‘la so‘zligiga materiallar” nomli xalq dostonlari tiliga oid lug‘atlarni tuzib, nashrga tayyorladi. Biroq 30-yillardan boshlab o‘zbek ziyolilariga qarshi boshlangan tazyiqlar ularning faoliyatini bo‘g‘a boshladi, hattoki ayrim nashrga tayyorlab qo‘yilgan (masalan, Elbekning “Ma’nodosh so‘zlar lug‘ati” kabi) asarlarini turli mafkuraviy ayblar bilan chop etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Ana shunday sabablar tufayli O‘zbekiston Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutiga katta maqsadlar bilan ishga kirgan Elbek yetti oy ichida uni tark etishga majbur bo‘ladi. Ammo til bilan bog‘liq birorta masala yo‘qki, o‘sha davrda Elbekning nazaridan chetda qolgan bo‘lsa. U til bilan bog‘liq jarayon xususida matbuotda muntazam chiqishlar qilib, o‘z munosabatini bildirib boradi.

Imlo masalasini sohaning asosiy og‘riqlaridan biri deb hisoblagan Elbek tilimizga mos imlo bo‘lishi kechiktirib bo‘lmas zarurat ekanini qayta-qayta ta’kidlashdan charchamaydi. Bizning imlomiz shunday imlo bo‘lsinki, faqat o‘zbek tiliga xos va o‘zimizga mos bo‘lsin. Biz o‘zga tillarning alifbosini olib, ularga moslashmaylik, balki ularni o‘zimizga moslashtiraylik. Ana shunday maqsad bilan jadidlar yangi alifbo ustida ish olib boradi. Shu orqali tilimizni ajnabiy so‘zlardan tozalashni ham maqsad qiladi. Bunga qanday erishish mumkin? Elbek shunday tushuntiradi: *“Biz o‘zbek tilining boylig‘ig‘a ishonamiz. Shuning bilan unutilg‘on so‘zlarni-da topmoqqa tirishamiz. Topilg‘on so‘zlarimizni o‘z negiziga solib, yozaveramiz. Qachonkim, bir so‘zning turkiychasi topilmas ekan, oni o‘z so‘zimiz topilg‘oncha tutqun etib, o‘z yo‘sunimiz ostida saqlaymiz. O‘zimizniki topilg‘och, oni oradan yo‘qotamiz. Bu ish hozirda qulay bo‘lmasa-da, tez paytda qulay bo‘lmog‘i aniqdur. 3-4 kelmishak yot so‘zlar o‘zbek tilining o‘yin iqitmoq yoxud yot so‘zlarni silab, oni o‘z holida qoldirmoq yana aytaman yarashmaydur. Tutkan yo‘sunimizga teskari bo‘lg‘on so‘zlarni butunlay oradan chiqarmoq kerak”.* **(“Imlo masalasi” “Ishtirokiyun”, 1920-yil, 7-oktyabr).**

Tilni saqlash va uning qat’iy qoidalarini ishlab chiqishga kirishgan ziyolilar “Imlo va til qurultoyi”ni chaqirishadi. Qurultoyda juda ko‘p masalalar hal bo‘ladi. O‘zbek tili va yozuvi borasida tortishuvli bo‘lsada, qarorlar qabul qilinadi. Bundan qattiq ta’sirlangan Elbek “Qizil bayroq” gazetasining 1921-yil 13-yanvar sonida shunday yozadi: *“Bu kun o‘zbek eli chindan o‘zin qutqardi va uning erkli yashamog‘iga keng bir yo‘l ochdi. Bir ulusning dunyoda borliqqa chiqara turg‘on narsasi shubhasiz uning milliy narsalari va tili bo‘lg‘isidur: Milliy narsasi yo‘q bir el totli bir turmush bilan yashayolmag‘onlig‘i kabi tilin yo‘qotqon bir elda o‘zun yo‘qotqon bo‘lur. Buni tushungan bir el, albatta, milliy narsalarni qo‘ldan bermay saqlag‘on kabi o‘z tilini-da unutmasliqqa tirishar: mana bu yo‘l esa u millatning tirilishi uchun katta keng bir yo‘ldir”.*

Bu davrda jadidlar asosiy g‘oyalarini, fikrlarini matbuotning kuchi orqali xalqqa yetkazishga urinishadi. Shu bois ham til islohotini ham avvalo, gazeta va jurnallardan boshlash kerakligi ta’kidlanadi. Vaqtli matbuot nashrlarida chiqqan xatoliklar, g‘alizliklar ayovsiz tanqid qilinadi. Elbek ham bir nechta maqolalarida matbuotda yo‘l qo‘yilgan imloviy va uslubiy xatolarga ochiqcha munosabat bildirib, muharrirlarini ogohlikka chaqiradi. “Turkiston” gazetasida “Tilimizdagi yonglishliqlar” sarlavhasi ostida bir turkum maqolalar e’lon qiladi. Ularning har birida so‘z va qo‘shimchalarni qo‘llashdagi xatoliklar hamda ularni to‘g‘ri ishlatish qoidalari berib boriladi.

Shuningdek, ushbu turkum ostida “ila” va “bilan” so‘zlarining farqi, “-lik” va “-li” qo‘shimchalarining to‘g‘ri qo‘llanishi, “bek” va “berk” so‘zlarining ishlatilishi kabi masalalar qalamga olinadi. Elbekning fikricha, so‘zni qanday eshitilsa, shunday yozish yaramaydi. Uni til qoidalariga moslab, adabiy til me’yorlariga solish lozim. Bu borada tilshunoslarning sa’y-harakati kerak bo‘ladi. Mutaxassislar o‘zlari bir qarorga kelib olmas ekan, tilimizni bir tizimga solish imkonsiz. Ayrim so‘zlarning yozilishi o‘sha davrda ham katta muhokamalarga sabab bo‘lgan. Bunga turli shevalardagi kishilarning so‘zlarni turlicha talaffuz qilishi sabab bo‘lgan. Elbek bunday tilshunoslarga qarshi turib, shunday yozadi: *“Bukun boshqa yoqlarni uncha bilmasam-da, Toshkentning o‘zidagi tilchilarning tilning xususiyatiga qarashlari turlichadir. Jumladan, shunday tilchilardan bir qanchalari eshitilgancha yozmoq bo‘lib, o‘zlaricha yonglish bir yo‘lg‘a kirib ketganliklarini ham sezmay qolmoqda. Masalan “qottiq” kabi qolin ust bilan yozilg‘uchilar to‘g‘risida ular Toshkentning shevasi bilan o‘lchab “qattiq”, yarim shaklida yozmoqni oldin suradilar. Ularning bu fikrlariga “buyurtma professurlarimiz-da oralashmasdan qolmaydirlar. Ular ham bu to‘g‘rida ulug‘ bir narsa “kashf” etkan kishilarday xovriqib turli yoqqa chopishmoqdalar. Men bilmayman, bu qanday so‘z ekan, o‘zlaricha “машкентский диалект” deyishib qichqirmoqdalar.”*

Bu davrda til va imlo bahslari juda qizg‘in tus oladi. Gazeta va jurnallarda tinimsiz maqolalar, lug‘atlar, atamalar chop etiladi. Bir-birini keskin tanqid ostiga olish, xatolarni ko‘rsatish, imloni to‘g‘rilash bilan bog‘liq chiqishlar ko‘payadi. Elbek “Til, atama, imlo bahslari” turkumi ostida ham bir qator maqolalar e’lon qiladi. Adabiy tilni yaratish borasida ko‘pdan ko‘p takliflar beradi. Bunday bahslar, takliflar o‘z natijasini bermasdan qolmadi, albatta. Bir tizimga solinmagan tilimiz ma’lum qoliplarga kirdi, sof o‘zbek adabiy tili shakllandi. Gazeta va jurnallarda xatolar kamaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilimiz shakllanishida ham aynan jadidlar davridagi islohotlar, bahs-u munozaralar, tadqiqotlar asos bo‘ldi desak, aslo xato bo‘lmaydi.

Bekzod IBRAGIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

2024-yil 25-oktyabr
№ 44(44)

JADIDLARNING DAVLAT VA HUQUQ HAQIDAGI QARASHLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuningdek, “Jadidlarning davlat-huquqiy qarashlari”, “Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari” monografiyalari, “Jadidlar tomonidan ishlatilgan davlat-huquqiy atamalar terminologiyasi” lug‘ati, “Millat qayg‘usi” she’rlar to‘plami, xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallarda o‘nlab ilmiy maqolalari, xorijiy davlatlarda va mamlakatimizda o‘tkazilgan konferensiyalar materiallari to‘plamlarida ko‘plab tezislari nashr etilgan.

Mavluda Ergashevaning O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida yaqinda nashr etilgan “Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari” nomli monografiyasi jadidlarning davlatchilik va huquq to‘g‘risidagi qarashlari tizimli, izchil va xolis tadqiq etilgan ilmiy asar sifatida, ayniqsa, diqqatga sazovor.



Monografiyada ko‘plab birlamchi arxiv materiallaridan, shu jumladan jadidlar nashr etgan gazeta va jurnallar materiallaridan foydalanilgan, undagi ma’lumotlar ilmiy jamoatchilik muhokamasiga ilk marotaba taqdim etilgan.

“Jadidlar davlat-huquqiy qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan ijtimoiy omillar” deb nomlangan birinchi bobda jadidlarning davlat va huquq haqidagi qarashlari shakllanishi omili bo‘lib xizmat qilgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy shart-sharoitlar, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro va Xivada davlatchilik, huquqiy tizim masalalari tahlil qilingan. Turkiston, Buxoro va Xivadagi ijtimoiy-siyosiy hayot jadidlik harakati paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgani yoritilgan. Xususan, mustamlakachi chor Rossiyasi tomonidan olib borilgan siyosat, o‘lkaning xomashyo bozoriga aylantirilib, mahalliy aholi ahvolining og‘irlashgani, odamlarning kamsitilgani, huquq va erkinliklari oyoqosti qilingani, madaniyati va an’analari tahqirlangani tasvirlangan.

Muallif jadidlar dasturidagi uch yo‘nalishni, birinchidan, yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; ikkinchidan, umidli yoshlarni xorijiy davlatlarga o‘qish uchun yuborish; uchinchidan, turli ma’rifiy jamiyatlar hamda ziyolilarning kuchli partiyasini tuzishga qaratilgan gazeta va jurnallar chop etishni to‘g‘ri ta’kidlagan.

Monografiyaning “Jadidlarning huquqiy qarashlari va ularning mohiyati” nomli ikkinchi bobida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov va boshqalarning davlat faoliyatida adolatni ta’minlash, inson manfaatlariga xizmat qilish borasidagi qarashlari o‘rganilgan. Jadidlarning ilm-fanni rivojlantirish, insonning bilim olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish to‘g‘risidagi fikrlari muhokama qilingan. Muallif inson huquq va erkinliklari ustuvorligi jadidlikning bosh g‘oyasi degan fikrni ilgari surgan.

Shuningdek, monografiyada jadidlarning Konstitutsiya va qonunlar, sud-huquq masalalari, oila haqidagi g‘oyalari ilmiy mushohada doirasiga tortilgan. Muallif jadidlarning g‘oyalari ham hisobga olingan Buxoro Konstitutsiyasi bilan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mohiyati, mazmuni va ayrim normalarini qiyosiy tahlil qilgan.

Kitobning “Jadidlar siyosiy partiyalarining dasturlarida davlat-huquqiy masalalarning ishlanishi va yechimlari” deb nomlangan uchinchi bobida “Turk Adami Markaziyati”, “Yosh buxoroliklar”, “Jadid taraqqiyparvarlari”, “Yosh xivaliklar”, “Turkiston federalistlari” kabi partiyalarning davlat qurilishi, huquqiy tizimni takomillashtirish, siyosiy-ijtimoiy va madaniy islohotchilik g‘oyalari yoritilgan. Bunda jadid partiyalari dasturlarida milliy-hududiy muxtoriyatga, davlat suverenitetiga erishish, xalqni birlashtirish, huquqiy davlatni qurish, aholi savodxonligini oshirish, uning siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, milliy hukumatni tuzish, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohotlarni amalga oshirish g‘oyalari ilmiy muhokama qilingan.

Monografiyaning to‘rtinchi bobi “Davlat va huquq g‘oyalarining jamoat arboblari tomonidan rivojlantirilishining ba’zi masalalari” deb nomlangan bo‘lib, unda milliy mustaqil demokratik davlat g‘oyasi – jadid huquqiy qarashlarining bosh mezoni, degan mulohaza ilgari surilgan. Bunda jadidlarning harbiy qurilish va mudofaa ishlarini rivojlantirish, xalqlar o‘rtasida milliy birlik va hamkorlikni kuchaytirish, saylovlar va siyosiy raqobatni rag‘batlantirish kabi g‘oyalari o‘rganilgan.

Shuningdek, monografiyada jadidlarning inson qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish, mustabid tuzumga barham berish, mustaqil demokratik davlat qurish kabi maqsadlarga erishish uchun mamlakatning dastlabki qadamlari sifatida, birinchidan, kuchli milliy armiyani barpo etish, ikkinchidan, demokratik saylovlarni tashkil qilish va o‘tkazish zarurligi to‘g‘risidagi xulosalariga e’tibor qaratilgan.

Monografiyaning “Xulosa” qismida Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlarini o‘rganish metodologiyasini boyitishga xizmat qiladigan hamda fidoyi millat xodimlarining asarlarida, dasturlarida davlat va huquq to‘g‘risidagi g‘oyalarning ifodalanishiga oid muallifning ilmiy va amaliy xulosalari taqdim etilgan.

Kitobning huquqshunoslik fani uchun quyidagi muhim yangiliklarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin:

– jadid mutafakkirlarining konseptual qarashlari asosida ta’lim tizimi rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq normalarni konstitutsiyaviy mustahkamlashning ahamiyati asoslangan;

– jadidlar merosidan aholi o‘rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat va milliy o‘zlikni mustahkamlash uchun muhim ilmiy asos sifatida foydalanish zarurligi ta’kidlangan;

– jadidlarning tarixiy xotirasini tiklash, arxiv materiallarini keng o‘rganish orqali tarixiy voqealarni obyektiv va xolis o‘rganish bo‘yicha akademik doiralar sa’y-harakatini yanada kuchaytirish zarurati asoslab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Mavluda Ergashevaning “Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari” nomli kitobi jadidlar faoliyati yuridik nuqtayi nazardan o‘rganilgan muhim ilmiy asar hisoblanadi. Bu kabi asarlar xalqimizni jadidlar ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan yanada yaqinroq tanishtirishga, Ona Vatan uchun aziz jonlarini fido qilgan jadid bobolarimizning xotirasini abadiylashtirishga xizmat qiladi. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, “Jadid bobolarimiz yurtimizni ozod etishga, qoloqlikdan olib chiqib, hamma sohalarni rivojlantirishga borini bag‘ishlagan. Buning badalini o‘z jonlari bilan to‘lagan. Biz bugungi mustaqillik, tinchlik, erkinlik sharoitida ularni eslashimiz, e’zozlashimiz ham qarz, ham farz”.

TARIX VA TAQDIR



“TARJIMON”NING XORAZMDAGI MUXBIRLARI

Matbuotning tarixni o‘rganishdagi ahamiyati katta. U boshqa manbalar – qo‘lyozma asarlar, arxiv hujjatlari, memuarlar bilan qiyosiy taqqoslash, tadqiq qilish orqali o‘tmishda yuz bergan jarayonlarni xolis, haqqoniy tasvirlashga, davr manzarasi qanday bo‘lganligini tasavvur qilishga imkon yaratadi. Aynan shu boisdan ham turkiy musulmon xalqlarida milliy uyg‘onishni yuzaga keltirgan Ismoil G‘aspralining “Tarjimon” gazetasi ham g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

Dastlab maktab sohasini isloh qilish maqsadi bilan boshlangan jadidlik harakati vaqt o‘tib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi. O‘sha davrdagi real vaziyatda ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib qilish, ommalashtirish va turkiy xalqlarni jipslashtirishda matbuot tabiiy zarurat edi.

“Tarjimon” gazetasi aynan shunday mas’uliyatli vazifani bajargan dastlabki nashr edi. Ushbu gazeta 1883-yil 10-apreldan Qrimning Bog‘chasaroy shahrida chop etila boshlaydi.

Mazkur gazeta chiqa boshlaganidan to keyingi 20 yil davomida Rossiya imperiyasidagi yagona musulmon matbuoti bo‘lib qoldi. Lekin ana shu mo‘jazgina gazetaning turkiy millatlarga ko‘rsatgan ta’siri katta edi. “Tarjimon”ning ta’siri ostida Rossiya imperiyasining turli burchaklarida musulmonlar tarafidan ko‘p sonli yangi maktablar ochildi. Talaygina xayriya jamiyatlari tashkil etildi. Yangi adabiyotlar, darslik va qo‘llanmalar yaratildi.

Ismoil G‘asprali juda mahoratli, ayni paytda so‘zni isrof qilmaydigan o‘tkir publitsist edi. U jumlalarni sodda, qisqa va lo‘nda ifodalovchi uslubni qo‘lladi. Shu tariqa “Tarjimon”ning o‘rta umumiy turk tilini yaratdi. G‘asprali butun turkiy millatlarni “Tarjimon”ning yagona adabiy tili ostida birlashtirishni orzu qildi. Buning uchun umrining oxiriga qadar “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida kurashdi. G‘asprali targ‘ib qilgan til o‘z vaqtida Qrimda, Istanbulda, Toshkent va Bokuda ham birdek tushunarli edi.

“Tarjimon” gazetasi mahalliy va rus tilida chop etilib, biri ikkinchisining aynan tarjimasidan iborat bo‘lgan. Vaqt o‘tib, Ismoil G‘asprali maqolalardagi mavzular doirasini o‘zgartirib, gazetani Rossiya imperiyasidagi turkiy musulmon xalqlarining milliy nashri darajasiga ko‘tardi.

“Tarjimon” 1914-yil 11-sentyabrgacha, ya’ni G‘aspralining vafotigacha uning noshirligi va bosh muharrirligida, vafotidan keyin esa o‘g‘li Rif’at va safdoshi bo‘lgan Hasan Sabriy tomonidan chop etilgan. Gazeta 1903-yildan haftada ikki, 1905-yildan uch marotaba va 1912-yildan esa kundalik gazetaga aylantirilgan va jami bo‘lib 2826 ta soni nashrdan chiqqan. Rossiya imperiyasi va Usmoniylar davlatida gazeta obunachilarining soni 5 ming nafargacha yetgan edi. Ular orasida Turkistonning turli hududida, xususan, Xorazmdagi turli tabaqaga mansub insonlar ham bo‘lishgan.

Ma’lumki, Turkistonda birinchi matbaaxona 1868-yilda Turkiston general-gubernatorligining Toshkentdagi okrug shtabida tashkil etilgan. Biroq ushbu matbaaxona kichik bo‘lgani tufayli uning nashr imkoniyatlari ham cheklangan edi. Shu bois matbaaxonada Turkiston general-gubernatorligining turli buyruqlari, ish hujjatlarigina chop etilgan. 1870-yilga kelib bosmaxona uskunalari ko‘paytiriladi va general-gubernatorlikning rus tilidagi “Туркестанская ведомости” gazetasi tashkil etiladi. Xuddi shu yili mahalliy aholi uchun “Turkiston viloyatining gazetasi” ham arab harfida chop etila boshlaydi. Tabiiyki, har ikkala nashr general-gubernatorlik mahkamasining gazetasi bo‘lgani uchun mustamlakachilik mafkurasi va g‘oyalari asosida ish olib boradi.

Ana shunday vaziyatda “Tarjimon” faqat Qrim, Volgabo‘yi, Kavkaz musulmonlari uchungina emas, Turkiston ahli, shuningdek, Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi uchun ham milliy ruhdagi, ziyolilar, xususan savodxon qatlam sevib mutolaa qiladigan, mushohada yuritadigan gazetaga aylandi.

“Tarjimon”ning g‘oyalari sabab vaqt o‘tib jadid taraqqiyparvarlari tomonidan Turkistonning turli hududlarida “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Oyina”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Hurriyat”, “Najot”, “Turon”, “El bayrog‘i” singari ko‘plab gazetalar chop etila boshlaydi. Ushbu gazetalarda ham millat dardi, jamiyatni isloh qilish istagi, muammolarga yechim sifatidagi takliflar yoritilgan mavzularga urg‘u berildi.

Natijada professor Begali Qosimov tadqiq qilganidek, “jadidlik oqim emas, harakat, ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat” darajasiga yetdi. U jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.

Tabiiyki, Ismoil G‘asprali Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi vaziyat bilan muntazam tanishib bordi. Negaki, G‘asprali turkiy dunyo sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan bu o‘lkaga istiqbolli mintaqa sifatida qaragan.

Filologiya fanlari doktori, professor Zaynobiddin Abdurashidov jadidlik harakati va “Tarjimon”ni tadqiq qilgan holda, gazetaning Turkiston bilan bog‘liq bibliografiyasini nashr ettirdi. Professorning ta’kidlashicha, “mazkur bibliografiyani tuzishda professor Y.Oqpinar arxivida saqlanayotgan “Tarjimon” gazetasi kolleksiyasidan foydalanilgan. Ushbu kolleksiya 1883-yildan 1917-yilgacha sonlarini o‘z ichiga oladi.

Afsuski, gazetaning 1917-yilgi sonlari to‘liq saqlanmagan. 1918-yilgi sonlari esa umuman mavjud emas. Professor Y.Oqpinarning harakati bilan gazetaning kolleksiyada mavjud bo‘lmagan sonlari dunyo kutubxonalari va arxivlaridan topilib, yig‘majild to‘liq holga keltirilgan. Mazkur kolleksiya hozirda “Tarjimon” gazetasining to‘liq arxivi hisoblanadi”.

Xorazmning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi davri tarixini o‘rganish, tadqiq qilish, qiyoslashda boshqa manbalar qatorida “Tarjimon” gazetasining ahamiyati nihoyatda kattadir. Gazetadagi ko‘plab maqola, xabar va lavhalarda Xorazm va xorazmliklarga oid ko‘plab mavzular yoritilgan.

Hayoti davomida ikki bor Turkiston va Buxoroda bo‘lgan G‘asprali vohadagi vaziyatni Rossiyaning turli hududlarida chop etilgan, shuningdek, “Туркестанские ведомости”, “Turkiston viloyatining gazetasi”dagi materiallar orqali ham kuzatib borgan.

Vaqt o‘tib bevosita Xorazmdan ham “Tarjimon” gazetasiga maxsus maqola, xabar yozadigan muxbirlar yetishib chiqdi. Shulardan biri Xorazmdagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilayotgan Ramazon Saydashev edi. “Tarjimon”da Xorazmga bog‘liq ko‘plab maqolalar aynan uning muallifligida chop etildi. Ba’zida G‘asprali Xorazmdagi jarayonlarga oid o‘zining tahliliy maqolalarini ham e’lon qilib bordi. Bu borada G‘asprali va Xiva xonligi bosh vaziri, taraqqiyparvar, islohotchi Islomxo‘ja o‘rtasidagi xat orqali fikrlashuvlar ham katta ahamiyat kasb etdi.

“Tarjimon” gazetasidagi 1883–1917-yillarga oid 150 dan ortiq maqola, xabar, lavhalarda o‘sha davrda kechgan jarayonlar, voqeliklar yoritib o‘tilganki, bu tariximizni o‘rganishda katta ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga, boshqa nashrlardagi Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga oid maqolalar bevosita “Tarjimon”da chop qilinib turgan. G‘asprali ularni nashr etish orqali turk dunyosini O‘rta Osiyodagi jarayonlar bilan tanishtirib turuvchi vositachi vazifasini ham bajargan.

Ana shu maqolalar orqali Ismoil G‘asprali turkiy musulmon xalqlari, shu jumladan Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi jarayonlarni kuzatib turgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasidagi qaysiki nashrda bu hududlarga doir maqola chop etilgan bo‘lsa, ularni “Tarjimon”da ko‘chirib bosgan. Ba’zida esa izoh berib, o‘z fikr – mulohazalarini ham bildirib turgan.

Ushbu maqolalarni “Tarjimon” gazetasida Xorazmga oid maqola va lavhalar” nomi bilan kitob holida chop etish, shu bilan birga “Ismoil G‘aspralining “Tarjimon” gazetasidagi chop etilgan maqolalarning Xorazm tarixini o‘rganishdagi ahamiyati” mavzusida ilmiy tadqiqot qilish zarurati bor.

O‘rni kelganda, “Tarjimon”ning xorazmlik muxbirlari xususida to‘xtalib o‘tsak. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ramazon Saydashev gazetaning faol muxbirlaridan biri edi. U XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan pedagog va jurnalistdir. Ramazon Saydashev dastlab Xivadagi rus-tuzem, keyinchalik Mamat mahramning jadid maktabida dars bergan.

Nashr bosh muharriri Ismoilbek G‘asprali Ramazon Saydashev yuborgan xabarlarni “Xivadan maktub” ruknida gazetada chop etgan. “Mulla Ramazon”, “Ramazon Saydashev”, “R.Saydashev” imzolari ostida vohada kechayotgan har bir jarayon, voqeliklar gazetada e’lon qilib borilgan. Ramazon Saydashevning pedagogik va jurnalistik faoliyati hanuzgacha umuman tadqiq qilinmagan.

“Tarjimon”ning yana bir jonkuyar xodimi G‘ofur Usmoniy haqida ham alohida to‘xtalmoq joiz. Xorazmdagi jadid maktablarida faoliyat ko‘rsatgan pedagog va jurnalist G‘ofur Usmoniy XX asr boshlarida Xiva, Yangi Urganch shaharlaridagi jadid maktablarida o‘qituvchilik qilgan. U Ramazon Saydashevning ta’lim va matbuot sohasidagi ishlarini munosib davom ettirgan shogirdi hisoblanadi. Muxbir Usmoniy ham “Vaqt”, “Tarjimon” gazetalarida Xorazmdagi ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risidagi maqolalari bilan muntazam qatnashib turgan.

Bir so‘z bilan aytganda, “Tarjimon” gazetasida o‘z maqolalari bilan faol ishtirok etgan Ramazon Saydashev va G‘ofur Usmoniy Xorazmdan yetishib chiqqan ilk jurnalistlar sifatida tarix sahifalaridan joy olishdi.

Umid BEKMUHAMMAD,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori,
dotsent

MILLAT FIDOYILARI

AKSILINQILOBCHI KARIM ZARIFOV

Qatag‘on qurboni bo‘lgan qahramonimiz Karim Zarifov 1897-yil 15-iyunda Namangan shahrida dehqonchilik va bog‘bonlik bilan shug‘ullanuvchi oilada tug‘ilgan. U Oktyabr inqilobidan so‘ng Namangan uyezd shahar bog‘boni bo‘lib xizmat qilgan. 1937-yil 11-mayda – Samarqand oblasti Yuqori Darg‘om rayon ijroiya komiteti raisi o‘rinbosari bo‘lib ishlab turgan paytida yozgan tarjimayi holida otasi bilan 1915-yilgacha birga yashaganini, rus-tuzem maktabini 3-sinfini bitirganini, moddiy qiyinchilik sabab o‘qishni davom ettirish imkoni bo‘lmaganini, shu bois 1915-yildan boshlab bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lganini, Namangan shahar bog‘boni yordamchisi bo‘lib ishlaganini, 1920-yildan esa shahar bog‘boni bo‘lib tayinlanganini qayd etgan.



Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, qahramonimiz 1922-yilgacha Qo‘qon shahrida yashagan. Bu vaqtda partiyaga kirgan va intiluvchanligi, ziyrakligi inobatga olinib, Qo‘qon shahar militsiyasi boshlig‘i vazifasiga tayinlangan. Faoliyati davomida Namangan uyezdi “Qo‘shchi” soyuzi tashkiliy bo‘lim mudiri vazifasida ham mehnat qilgan. Namangan uyezd-shahar partiya komitetida partiya tashkilotchisi bo‘lib 1923-yilgacha ishlagan.

Mehnatsevarligi bois xizmat pillapoyalaridan yuqorilab, 1924-yili Namangan oblast partiya komiteti tomonidan oblast jinoiy-qidiruv bo‘limining boshlig‘i etib tayinlangan. Bir yil ishlaganidan so‘ng maxfiy-operativ bo‘lim boshlig‘i vazifasiga o‘tkazilgan. Keyin yana avvalgi ishiga, ya’ni 1925-yili Namangan oblast jinoiy-qidiruv bo‘limi rahbarligiga qaytib, bu lavozimda 1926-1927-yillar davomida sidqidildan mehnat qilgan.

Qayta tashkil etish boshlanishi munosabati bilan u Andijon okrugi jinoiy-qidiruv boshlig‘i vazifasiga o‘tkazildi. 1929-yil boshlaridan esa Qo‘qon okrug partiya komiteti va O‘zSSR NKVD roziligi bilan yana Qo‘qon okrugi ma’muriy bo‘limi militsiya va qidiruv bo‘limi boshlig‘i lavozimida ish boshlagan qahramonimiz mazkur vazifada 1929-yil oxirigacha faoliyat olib boradi.

“1929-yil dekabrda, – deb yozadi Karim Zarifov shaxsiy varaqani to‘ldira turib, – Samarqand shahriga kelishim bilan okrug partiya komiteti sekretari tomonidan 1-son zavod boshqarmasiga boshliq bo‘ldim. Olti oy ishladim. Samarqand okrug partiya komiteti qaroriga binoan men Ikromov rayoni yer bo‘limiga mudir etib, shundan so‘ng Samarqand okrug partiya komiteti va okrug ijroiya komiteti Ikromov rayoni rayijroqo‘m raisi o‘rinbosari qilib tayinlandim. Keyinroq yana o‘sha ko‘rsatilgan tashkilotlar qarori bilan Yuqori Darg‘om rayoni ijroiya komiteti raisi o‘rinbosari vazifasiga mas’ul bo‘ldim. Shu lavozimda hozirgi vaqtgacha ishlab kelmoqdaman”.

Karim Zarifov 1931–1935-yillarda Yangi Urganch shahrida Xorazm okrugi militsiya boshlig‘i, 1935–1937-yillarda Buxoro shahrida okrug militsiya sektori boshlig‘i bo‘lib xizmat qilgan.

Shaxsiy varaqada 1924, 1925, 1926, 1934-yillari jinoyatchilarga qarshi faol kurash olib borgani uchun faxriy yorliqlar, qurollar bilan taqdirlanganini, oilasida faqat ayoli borligi, yashash manzili Buxoro shahri, Guzor Ozod ko‘chasi, 385-uy ekanini qayd etgan.

Arxiv hujjatlari orasida O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari, davlat xavfsizligi mayori Apresyan tomonidan berilgan 1937-yil 6-dekabrda O‘zSSR Jinoyat kodeksining 57-67-moddasi bilan ayblanuvchi Karim Zarifovning 7856-sonli tergov ishining tushuntirish xulosasi bor. Unda Buxoro shahri militsiya boshlig‘i Karim Zarifovning O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan aksilinqilobchi, millatchi tashkilot ishi yuzasidan tergov ma’lumotlari keltirilgan. Qahramonimiz shu ma’lumotlar asosida 1937-yil 28-oktyabrda hibsga olinadi.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tergov boshqarmasi bo‘limi operativ vakili Kuminov va davlat xavfsizligi kichik leytenanti Myasnikov tomonidan Karim Zarifov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 60-, 67- va 57–2-moddalari bo‘yicha ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bu haqidagi qaror O‘zSSR NKVD komissari o‘rinbosari Leonov tomonidan tasdiqlangan.

1937-yil aprel boshlarida Karim Zarifov partiya safidan o‘chiriladi. Uning partiyaviyligi bilan bog‘liq holatlar rasmiy sur’atda muhokama qilingan. Guvohlardan biri Yunus Azimov 1937-yil 24-apreldagi partiya yig‘ilishida qahramonimizga: *“1934-yil kuzida Mo‘minovning uyidagi suhbatda Afg‘oniston konsulligi xodimi G‘ulom Ibrohimov ishtirok etgan. Ayting-chi Mo‘minov bilan G‘ulom Ibrohimov o‘rtasidagi aloqalar haqida sizga nimalar ma’lum?”* deya savol bergan. Karim Zarifov savolga javoban: *“Haqiqatdan 1934-yil oxirida boshqa mehmonlar qatori men ham Mo‘minovning uyidagi ovqatlanishda bo‘lganman. Mehmonlar qatori Afg‘oniston konsulligi xodimi G‘ulom (familiyasini bilmayman) ham bo‘lgan. Menga ma’lumki, G‘ulom Mo‘minov huzurida tez-tez bo‘lib turgan. Ular o‘rtasida aloqa bo‘lgan. Men Mo‘minov bilan G‘ulomning o‘rtasidagi munosabatni bilmayman”.*

1937-yil 31-oktyabr kuni Toshkent shahrida O‘zSSR NKVD Maxsus inspeksiya katta inspektori, militsiya kichik leytenanti Gzikov Buxoro sektori sobiq boshlig‘i Karim Zarifov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 60-, 67-moddalari bo‘yicha jinoiy javobgarlikda ayblanayotganini, O‘zSSR Ichki ishlar xalq vaziri Apresyan ayblanuvchi Karim Zarifov to‘g‘risidagi jamiki materiallarni O‘zSSR Maxsus vakiliga topshirishi kerakligini talab qilgan. Qabul qilingan qarorda Karim Zarifovga tegishli barcha materiallar NKVDning maxsus bo‘limiga topshirilishi belgilangan.

Karim Zarifov 1937-yil 14-noyabrda tergov qilingan. Tergovchi unga:

– Siz Buxoro shahrida aksilinqilobiy qo‘zg‘olonchi tashkilotning a’zosi bo‘lganingiz. Sizdan shu masalada ko‘rsatma berishingizni talab etamiz.

Mahbus tergovchiga javoban shunday degan:

– Tan olamanki va tasdiqlaymanki, hibsga olinganim vaqtidan beri men o‘zimni Buxoro shahridagi aksilinqilobiy tashkilotning a’zosi bo‘lganimni aytib kelmoqdaman.

– Qanday maqsad va vazifa qo‘ygansiz?

– Men a’zo bo‘lgan aksilinqilobiy tashkilot o‘z oldiga qo‘zg‘olon tayyorlab, Sovet hokimiyatini ag‘darib, O‘rta Osiyo hududida burjua demokratik milliy davlatni o‘rnatish vazifasini qo‘ygan.

– Kim tomonidan va qachon siz aksilinqilobiy tashkilotga tortilgansiz?

– Men aksilinqilobiy isyonchi tashkilotga 1935-yil iyun oyida Buxoro shahridagi partiya faollari uyida Buxoro shahar partiya komitetining sobiq sekretari Hakim Karimov bilan uning kabinetida uzoq so‘zlashganimdan so‘ng a’zo bo‘lganman. Karimov mening kelib chiqishim, qayerdanligim, o‘tmishdagi ish faoliyatim va mening shaxsiy hayotimga oid boshqa savollar bergan. Suhbat oxirida Karimov menga shahar partiya komiteti dam olish uyiga ega ekanini, mening ham keksa partiya a’zosi, mas’ul xodim sifatida u yerga kelib turishimni tayinladi. Qolaversa, Karimov meni ogohlantirib, partiya faollari dam olish uyiga faqat bir o‘zim, ayolimsiz kelishimni aytdi. Dam olish kunining o‘zidayoq Karimov menga yengil avtomashina yuborgan va men o‘shanda dam olish uyiga birinchi marta bordim. Shu kuni dam olish uyida shahar partiya komitetining sobiq kotibi Hakim Karimov, shahar sovetining sobiq raisi Rajab Qurbonov, 1-“MTS” direktori Umar Yunusov, shahar soveti raisi sobiq o‘rinbosari Ramazonov, rayon ijroiya komiteti raisi Hamid Yunusov bo‘lgan.

Hujjatda qayd etilishicha, Karim Zarifov o‘sha dam olish uyiga birinchi bor kirganida Karimovning ishonchini qozongan, mavzuga qiziqqan.

“Partiya komiteti dam olish uyiga birinchi bor kelganimda Hakim Karimov menga ishonch bilan qaragan va ayni vaqtda mavzuga qiziqib ushbu manzilga har dam olish kunida kelib turganman.

Karimovning topshiriqlarini har xil vaqtda taxminan 1935-yil sentyabr oyidan bajarishga kirishdik. Topshiriqqa ko‘ra, aksilinqilobiy isyonchi tashkilotimizga militsionerlarni jalb eta boshladim. Ular quyidagilar edi: Karim Rahimov, Egamberdiyev, Karamatov, Husayn Sharipov va uchastka inspektori Ibrohimov. Yuqoridagi shaxslarning har biri bilan alohida-alohida suhbat o‘tkazdim. Ularning har birini ruslar bilan kurashishga tayyor turishlarini, qurolli qo‘zg‘olon yo‘li bilan ruslarni O‘zbekiston hududidan chiqarib yuborishni, shundagina butun o‘zbek xalqi e’tirof etilishiga erishish mumkinligini aytdim. Bir vaqtning o‘zida men ularning har birini alohida jalb etib, ularga o‘z o‘rtoqlarini tashkilotga jalb etishi haqida topshiriq berdim”.

– Tergovga ma’lumki, aksilinqilobiy tashkilotga militsionerlarni tortishdan tashqari siz Karimov topshirig‘i bo‘yicha aksilinqilobiy tashkilotni qurol bilan ta’minlagansiz. Qancha miqdorda qurolni aksilinqilobiy tashkilotga va aynan kimga topshirgansiz?

– Karimovning to‘g‘ridan-to‘g‘ri topshirig‘i bo‘yicha bizning aksilinqilobiy tashkilotimiz a’zolarini qurol bilan ta’minladim. Qurbonovni “Nagan” tizimli va qo‘lbola revolver bilan, Yo‘ldoshevni “braun” 7,65 kalibrli “Nagan” bilan ta’minladim.

Arxivdagi 8567-sonli Karim Zarifovning shaxsiy ishida Xosiyatxon Zarifova uning onasiligi qayd etilgan. Biroq hujjatda qahramonimizning onasi yashagan manzil ko‘rsatilmagan. Karim Zarifovning ayoli 1904-yilda tug‘ilgan Kolyayeva Anna Kuzminichnaning ham tug‘ilgan joyi arxiv hujjatlarida qayd etilmagan. Qahramonimiz hibsga olingan vaqtda Samarqand shahrida yashayotgani ko‘rsatilgan, ammo yashayotgan ko‘chasi, uy raqami, qarindoshlari nomlari keltirilmagan. Karim Zarifov 1937-yil Buxoro oblasti Ichki ishlar boshqarmasi operativ sektor boshlig‘i ekani ham qayd etilmagan.

1938-yil 8-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining tayyorlovchi yig‘ilishi Toshkentda o‘tkazilgan. Uning tafsilotlari aks etgan 4-sonli bayonnomada yig‘ilishda Alekseyev (rais), harbiy yurist Zaysev (a’zo), 1-rangdagi harbiy yurist Bolderev (a’zo), harbiy yurist Vatner (kotib) va prokuror yordamchisi Shuls qatnashgani qayd etilgan.

Yig‘ilishda mahbus Karim Zarifov ishi SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasiga taqdim etilib, sudlanuvchi O‘zSSR Jinoyat kodeksining 57–1, 64- va 67-moddalari bo‘yicha ayblangan.

1938-yil 9-oktyabrda Toshkent shahrida SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining ko‘chma sessiyasida yopiq sud yig‘ilishi o‘tkaziladi. Sud yig‘ilishi soat 13:35 da ochilgan. Raislik qiluvchi tomonidan Karim Zarifov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 57–1, 64- va 67-moddalari bilan ayblangani qayd etilgan. Sud kotibi sudlanuvchi sud zalida borligi va sudga guvohlar chaqirilmaganini keltirib o‘tgan. Sudlanuvchi hech qanday arizaga ega emasligi va sud tarkibiga nisbatan qarshiligi yo‘qligini bildirgan.


SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 9-oktyabrdagi yig‘ilishida 1897-yili Namangan shahrida tug‘ilgan Karim Zarifov otuvga hukm etilgan. Hukm o‘sha kuni ijro qilingan.

Oradan 19 yil o‘tib, 1957-yil 3-aprelda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasida O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 64- va 67-moddalari bilan otuvga hukm etilgan Karim Zarifov harakati tarkibida jinoyat alomatlari yo‘qligi aniqlangan.

Prokuror qo‘shimcha tekshiruvlar natijasida Zarifovning aybsizligidan guvohlik beruvchi yangi holat topilgani munosabati bilan hukmni bekor qilishni so‘raydi. Shunga binoan ish materiallarini ko‘rib chiqib va xulosadagi dalil va sabablarni e’tiborga olib SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi 1938-yil 9-oktyabrdagi Karim Zarifovga nisbatan hukmni bekor etgan. Jinoyat tarkibi yo‘qligi bois ishni to‘xtatishga qaror qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Solih Jumayev – 1881-yilda Shofirkon rayoni Qatag‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda kolxoz kotibi bo‘lgan. Doimiy ravishda aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik targ‘ibotini olib borganlikda, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 28-noyabrdan hisoblangan.

Bobojon Shodiyev – 1889-yili Shofirkon rayoni Xant qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbek millatiga mansub. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan paytda kolxoz kotibi bo‘lib ishlagan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan millatchi guruh ishtirokchisi sifatida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 28-noyabrdan hisoblangan.

Isroil Alixo‘jayev – 1896-yili Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. 1918-yili Qo‘qondagi qo‘zg‘olonda ishtirok etgan. 1918-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 6 yil qamoqqa hukm etilgan. 1934-yili partiyadan o‘chirilgan. Qamoqqa olinish vaqtida kolxozda ferma mudiri bo‘lib ishlagan. U 1918-yili qo‘zg‘olonning faol ishtirokchisi bo‘lgan, qizil armiyachilarning otilishida ishtirok etgan, millatchi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy millatchi tashkilotning a’zosi sifatida uning yashirin yig‘ilishlarida ishtirok etganligi sababli O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 23-avgustdan hisoblangan.

Abdug‘afurxo‘ja Abdusamig‘xo‘jayev – 1888-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. U 1919–1924-yillarda “Ittihod va taraqqiy”, “Milliy ittihod” tashkilotlarida faol ishtirok etganlikda hamda “Ulamolar yakkamillati”ga rahbarlik qilganlikda, Osipov isyonida faol ishtiroki uchun ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 2-bandi bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 13-avgustdan hisoblangan.

Ro‘ziqul Yusupov – 1896-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, ikki marta sudlangan. 1918-yildan 1924-yilgacha partiya a’zosi bo‘lgan. 1921-yildan “Milliy ittihod” aksilinqilobiy, millatchi tashkilot a’zosi bo‘lgan. Shu tashkilotning Samarqanddagi filialida rahbarlik qilgan. Doimiy ravishda aksilinqilobiy xarakterdagi targ‘ibot olib borganlikda, ya’ni O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1938-yil 10-avgustdan hisoblangan.

Lutfilla Alimov – 1910-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1931-yildan 1935-yilgacha O‘zkompartiya a’zosi bo‘lgan, partiya hujjatlari tekshirilgan vaqtda partiyadan o‘chirilgan. 1926-yildan “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi sifatida aksilinqilobiy targ‘ibot bilan doimiy ravishda mashg‘ul bo‘lganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi qaratilgan millatchilik fikrlari uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 2-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Xomid Rasul Qoriyev – 1902-yili Qozog‘iston SSR Mirzoyan shahrida tug‘ilgan. O‘zbek millatiga mansub. Partiya a’zosi bo‘lgan, paxta ishlari sabab partiyadan o‘chirilgan. Lavozim bo‘yicha jinoyat qilganligi uchun 1935-yil 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Keyin hukm 1 yil shartli qamoq bilan almashtirilgan. Keyinchalik u “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda ayblanib 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 10-avgustdan hisoblangan.

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

OG‘RIQ

IJTIMOIY TARMOQDAGI RO‘YO



Ijtimoiy tarmoqlardagi saviyasiz videolavhalardan birining ostiga qoldirilgan ajabtovur izoh e’tiborimni tortdi. Unda ikki o‘smirning bemaza qiliqlari tasvirlangan edi, bunga munosabat bildirgan bir foydalanuvchi “Sohibqiron bobomiz Amir Temur shular uchun jang qilganmidi?” deya izoh yozgan. Bu gap bir qaraganda ma’nosiz tuyuladi, lekin tagida achchiq haqiqat va kinoya mavjud.

Avlodlar yuksak texnologiyalar asrida ajdodlarga munosiblik u yoqda tursin, milliy o‘zlikdan ham uzoqlashayotgani achinarli hol. Bu holatni o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish ayni paytdagi dolzarb vazifalardan biridir. Keyingi paytlarda aholining yosh qatlami bevosita tarmoqlardagi kayfiyat, muloqotlar ta’sirida voyaga yetayotgani sir emas. Afsuski, o‘smirlarning qo‘lidagi telefonni nazorat qilish mushkul bo‘lib qoldi. Shunday paytda ularga taqiq bilan emas, internetdan foydalanish madaniyatini o‘rgatish bilan vaziyatni yaxshi tomonga o‘zgartirish mumkin. Biroq bizda hali internetdan foydalanish madaniyati ham to‘la-to‘kis shakllanib ulgurgani yo‘q. Aksariyat yoshlar real hayotdan ko‘ra ko‘proq virtual hayotga bog‘lanib qolishyapti. Virtual hayot reallikdan keskin farqlanishi, u yerda illyuziyalar ko‘p ekanini yoshlar tushunib yetmayapti. So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda ba’zi o‘smirlarning tajovuzkor xatti-harakatlari aks ettirilgan keyslar soni ortib bormoqda. Biroq bu hodisaning turli tomonlarini va uning ijtimoiy tarmoqlarda har xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishini tavsiflovchi tadqiqotlar hali ko‘p emas. Ijtimoiy tarmoqlarning yosh foydalanuvchilari orasida virtual tajovuz bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarni ko‘rib chiqish orqali ayrim xulosalar bilan o‘rtoqlashamiz.

Ommabop ijtimoiy tarmoqlarda internetdagi bezorilikning xususiyatlarini va uning salbiy psixologik oqibatlarini ochib beradigan tadqiqotlarni kuzatdik. Bir qator mamlakatlarda o‘smirlar o‘rtasida kiberbulling, ya’ni zamonaviy axborot texnologiyalari orqali bezorilikning tarqalishi bo‘yicha alohida statistik ma’lumotlar keltirilgan. Kibertajovuzning asosiy sabablari, shuningdek, yoshlarning kiberbullingga jalb etilishiga yordam beradigan xavf omillari va uning yosh foydalanuvchilarning ruhiy to‘kisligiga ta’sirini kamaytiradigan omillar tahlil qilingan.

Virtual tajovuzning turli variantlari mavjud. Bularga, xususan, og‘zaki zo‘ravonlik, do‘q-po‘pisa, kamsitish yoki boshqa foydalanuvchini masxara, haqorat qilish yoki unga nisbatan tahdidlar kiradi. Bir guruh odamlar tomonidan yozishmalar orqali shaxsni qabul qilmaslik, rad etish va u bilan muloqot qilishni istamaslik esa guruh zo‘ravonligi hisoblanadi. Boshqa shaxslarning foto va videomateriallarini uning ruxsatisiz ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish va tarqatish “vizual zo‘ravonlik” deb ataladi.

Kiberbulling yoki bolalar va o‘smirlarning internetdagi virtual tajovuzlari xorijdagi tadqiqotchilarning e’tiborini tortmoqda. 1990-yillarda paydo bo‘lgan bulling tushunchasi ijtimoiy kuch yoki jismoniy kuchning tengsizligini o‘z ichiga olgan qasddan, muntazam ravishda takrorlanadigan tajovuzkor xatti-harakatlar sifatida tavsiflanadi. So‘nggi yillarda bulling doirasi sezilarli darajada kengaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi virtual makon zamonaviy o‘smirlar hayotining muhim qismiga aylanishiga yordam berdi. Shu jumladan uning ijobiy va salbiy tomonlari, tajovuzkorlik va onlayn bezorilik, aniqrog‘i, kiberbulling kuchayishiga yo‘l ochdi. Kiberbullingning o‘ziga xosligi va ortib borayotgan xavfi shundaki, anonimlik, ya’ni shaxsini yashirgani tufayli tajovuzkorning jazosiz qolishi va sodir etgan harakatlari uchun o‘zini aybdor his qilmasligi mumkin, jabrlanuvchi esa muntazam ravishda tashvish va qo‘rquvni his qiladi. Kiberbullingning keng tarqalgan shakllariga qo‘rqitish yoki muntazam ravishda yuborilgan haqoratli xabarlar kiradi.

Tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarni bir savol ko‘proq qiynamoqda – o‘smirlarni kiberbullingga qanday sabablar undamoqda? O‘rganishlarga ko‘ra, o‘tmishda tahqir va zo‘rovonlikka duch kelgan o‘smirlar ruhiyatida “qasos olish motivatsiyasi” o‘rnashib qoladi. Keyinchalik ana shu holat uni kiberbuzg‘unchilikka undashi mumkin. Ba’zi tajovuzkorlar esa o‘zining boshqa tayinli mashg‘uloti va qiziqishlari yo‘qligi bois shunchaki vaqt o‘tkazish maqsadida ana shunday nojoiz ishlarga qo‘l uradi. Tengdoshlarning bosimi ham ayrim o‘quvchilarni onlayn bezorilikka undashi mumkin. O‘smirlarning har bir kishi kamida bir marta boshqalarni haqorat qilgani haqidagi fikriga asoslangan motivatsiya (“hammaning ishtiroki”) va “xavfsizlik tuyg‘usi” kiberbuzg‘unchilarning xatti-harakatlari jazosiz qolishi haqidagi ishonchini mustahkamlaydi.

Kiberbullingning oldini olishda asosiy yo‘nalish sifatida internet platformalarining xavfsizlik darajasini oshirish, bolalar va ularning ota-onasini internetda adekvat xatti-harakatlarga o‘rgatish kabi mezonlar tilga olinadi. Ba’zi ijtimoiy tarmoqlar o‘z akkauntlarida maxfiylik sozlamalarini o‘rnatish imkoniyatiga ega, bu esa foydalanuvchilarga salbiy sharhlardan xalos bo‘lish va huquqbuzarlarni bloklash imkonini beradi.

Kiberbulling internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlangani sayin bizning jamiyatimizda ham jiddiy muammoga aylanmoqda. Maktablarda o‘smirlarning tajovuzkor xatti-harakatlari oldini olish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Pedagog xodimlarning psixologik kompetensiya darajasini oshirish va voyaga yetmaganlarning tengdoshlari bilan munosabatlaridagi psixologik muammolarni bartaraf etish zarur. Virtual zo‘ravonlikdan aziyat chekkan shaxslar bilan individual va guruhli psixoterapiya usullari orqali shug‘ullanish tavsiya etiladi. Biroq bu tadbirlarni o‘tkazish uchun yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi.

Shuningdek, turli internet saytlari va yangi tashkil etilgan ijtimoiy tarmoqlarda o‘smirlarning virtual muloqotini o‘rganish lozim. Ayniqsa, Tik-tok ijtimoiy tarmog‘i o‘smirlar eng faol foydalanadigan platforma hisoblanadi. Bizda virtual bulling jabrdiydalari statistikasi yuritilmasligi ham muammoning eng katta jihatlaridan biridir. Kiberbulling va an’anaviy maktab zo‘ravonligining o‘zaro bog‘liqligi masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Kiberbullingning paydo bo‘lishiga yordam beruvchi omillar va uning oldini olish sohasidagi izlanishlarni davom ettirish esa ushbu hodisaning psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish va ularning oldini olish bo‘yicha ta’sirchan choralar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday tadqiqotlar raqamli makon va ta’lim maskanida o‘quvchilar uchun xavfsizlik sharoitlarini yaxshilashda qo‘l kelishi mumkin.

Zotan, bulling ham ijtimoiy tarmoqdagi bir ro‘yo, xolos. Biroq buni o‘smir ruhiyati yomon qabul qiladi va keyinchalik og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, farzandlarimiz taqdiriga befarq bo‘lmasligimiz, ularni ijtimoiy tarmoqdagi illyuziyalardan asrashimiz kerak.

Kamoliddin TO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TARMOQLARDA NIMA GAP?

KESATIQ



Bizda samolyotlar qo‘nib qo‘ya qolmaydi, balki “qo‘nishni amalga oshiradi”. Biz dorini, kechirasiz, “dori vositasi”ni ichib yoki yutib qo‘ya qolmaymiz, balki uni nihoyatda hurmat-izzat bilan “qabul qilamiz”. Kreditni to‘lash xayolimizga kelmaydi, balki uning ustiga bir-bir chelakdan suv quyib, “so‘ndirib” boramiz. Olov-da u! Bizda futbolchilar shunchaki birov-birovini chalib yiqitmaydi, balki “fol” qiladi. Qo‘shimcha vaqtda emas, o‘ynashsa, faqat “ekstra taym”larda o‘ynashadi. Burchakdan to‘p tepishmaydi, balki “kornerni amalga oshiradi”. Tilimizni shunday “sevamiz”.

* * *



Bizda davlat tilini bilish majburiy bo‘lmay turib, chet tilini bilish majburiy etib belgilangan. O‘zbek ona tilini yaxshi bilmasa, bir gapida o‘nta xato qilib yozsa-yu chet tilini bilsa (sertifikati (!) bo‘lsa) bo‘ldi, unga hamma joyda eshik ochiq – “yashil chiroq”. Lekin ona tilini zo‘r bilsa-yu, chet tilidan sertifikati bo‘lmasa, davlat universitetlari magistraturasiga hujjat topshirishga “qizil chiroq”...

* * *



“Qurt” deb yozib qo‘ygan, lekin qurt so‘rasang, bir donayam topib berolmaydi. Chunki bular hayotda qurt bilan qurtning farqiga bormaydi...

Chet tilidan sertifikat so‘rab, odamlarning yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lguncha, ta’limchilarimiz ona tilini o‘qitishni joyiga qo‘yib qo‘ysalar bo‘lmaydimi? Aks holda, yaqin kelajakda mana shunaqa qurtfurush-u qurtshunoslar yetishib chiqaveradi.

Elmurod NISHONOV,
Facebook

TILBILIM

XASHAK SO‘ZLAR

Uzoq vaqt oqmagan ariqqa suv kelsa, suv dastlab xas-xashak, chiqindilarni olib keladi. Saksoninchi yillar oxiri, to‘qsoninchi yillar boshida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan tilimizdagi ba’zi ruscha, baynalmilal so‘zlarni o‘zbekchalashtirishda ham shunday bo‘ldi. Misol uchun “rayon” avvaliga “nohiya” ataldi, lekin bu xashak so‘z edi, hech kim uni hazm qilolmadi, ammo tilimizda ming yillar osha yashab kelgan, kichik hududiy birlikni bir chet so‘z – “rayon”dan ham yaxshiroq ifoda etadigan “tuman” bor edi. “Tuman”ning qayta tiklanishi shunday topilma bo‘ldiki, uning oldida “rayon”ning o‘zi g‘aliz tuyulib qoldi. Biroq o‘sha paytlarda qabul qilingan ba’zi xashak so‘zlar hali-hamon yashab kelmoqda. Shunday xashak so‘zlardan biri:



BOSHLOVCHI

Xo‘sh, tele yoki radioboshlovchi kim? Teleboshlovchi ko‘rsatuvni olib boradi yoki taqdim etadi, radioboshlovchi radioeshittirishni. O‘zbek tilida “boshlovchi” deganda biron ish-harakatni boshlab beruvchi shaxs tushuniladi. Chunki bu so‘z “boshlamoq” fe’lidan yasalgan. Mantiqan boshlovchining o‘sha boshlangan ishni davom ettirishi yoki nihoyasiga yetkazishi shart emas. Chunki u boshlovchi. Deylik, Qodiriy – o‘zbek romanchiligi boshlovchisi, lekin davom ettiruvchi yoki nihoyalovchi emas. Teleboshlovchi ham biron bir ko‘rsatuvni boshlab berib, keyin g‘oyib bo‘lib qolmaydi, boshlagandan keyin oxirigacha olib boradi, oxirida esa nihoyalab biz bilan xayrlashadi. Boshqacharoq aytganda, u ko‘rsatuvni boshdan oxirigacha bizga taqdim etadi. Shu bois turk qardoshlarimiz bu kasb egasini – “sunuvchi” (“sunucu”, “televızyon sunucusu”), ya’ni “taqdim etuvchi”, ozarbayjon qardoshlarimiz: “olib boruvchi” (“телевизия апарıcıcı”) deb ataydi. “Olib boruvchi” deganda ruscha “телеведущий”dan nusxa ko‘chirganday tuyuladi, lekin televizor paydo bo‘libdiki, tilimizda shu ibora bor: “ko‘rsatuvni falonchi olib boradi” yoki “taqdim etadi” deymiz, lekin hech qachon “ko‘rsatuvni falonchi boshlab beradi” deyilmaydi.

Shu o‘rinda yana bir misol: mazkur kasb egasining fransuzchada atalishi diqqatga sazovor: fransuz tilida ko‘rsatuv olib boruvchi jurnalist – “animator” (ayol kishiga nisbatan: “animatris” – “animateur”, “animatrice de télévision”) ataladi. “Animateur (-rice)” – “jon ato etmoq”, “jonlantirmoq” kabi ma’nolarga ega fransuzcha “animer” (yoki lotincha: “animare”) fe’lidan yasalgan bo‘lib, “jonlantiruvchi” demakdir. Ya’ni, fransuzcha animator – ko‘rsatuv yoki eshittirishni jonlantiruvchi, unga ruh bag‘ishlovchi shaxs (Fransuz tilida “animator”, shuningdek, biron bir guruh, ish-harakat, san’at asariga “jon baxsh etuvchi” ma’nosida boshqa sohalarda ham ishlatiladi). Shuningdek, fransuz tilida ba’zan ko‘rsatuv taqdim etuvchisiga nisbatan – “prezentator” (“présentateur” – “taqdim etuvchi”) deyilishi ham mumkin. Ingliz tilida ham xuddi shu ma’noda “radio/television presenter”, ya’ni “radio/televizion taqdim etuvchisi” nomi qo‘llanadi.

SUXANDON

Ruscha “diktor” so‘zini “suxandon”ga almashtirilishini aql bilan tushunib bo‘lmaydi. Diktor – bu radio yoki televizor orqali eshittiriladigan matnlarni o‘qib beruvchi xodim. Ingliz tilida bu kasb egasi – “announcer”, turk tilida “anönsör”, ya’ni “e’lon qiluvchi”, “bildiruvchi” deb ataladi. “Diktor” ham, “announcer” ham shu kasb egasi bajaradigan amalga mos nom, fors-tojikcha: “suxandon” esa: “so‘zga chechan, so‘zamol, notiq” kabi ma’nolarga ega. Lekin “diktor” deb tayyor matnni o‘qib beruvchi shaxsga nisbatan aytiladi, yoqimli ovozi, so‘zlarni yaxshi talaffuz qila olish qobiliyati uning asosiy fazilatlari, diktor umuman gapga chechan, notiq bo‘lmasligi ham mumkin. Ehtimol, so‘zga chechan, notiq, suxandon so‘zini siyosatchi, adabiyotchi yoki boshqalarga nisbatan qo‘llash mumkindir, lekin aslo diktorga nisbatan emas.

Negadir bizda bir chet so‘zni boshqa chet so‘zga almashtirish an’anasi mavjud, nafaqat chet so‘z, hatto ko‘pincha o‘z so‘zimizni ham chet so‘zga almashtiramiz, ehtimol, shu xislatimiz bilan dunyoda yagona millat bo‘lishimiz mumkin. Deylik, “radiotinglovchi” so‘zi yaqin o‘tmishda – radio paydo bo‘lgandan keyin chet so‘z emas, o‘z so‘zimizdan yasalgan. Ana shunday topilmalar bizga ko‘proq kerak.

Abduvohid HAYIT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 812
Lotin yozuvidagi adadi – 11 905
Media kuzatuvchilar – 19 335
Buyurtma: G – 1040.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz